

جدید

2026-yil 24-iyul
№ 30 (134)

www.jadid.uz



Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta



@Jadidrasmiy



@Jadidmediauz



@Jadidrasmiy



@Jadid_uz

TARAQQIYOT
VA MEDIA

Kitobda O'zbekistonning
hozirgi davrida jamiyatga
yangi g'oya, tashabbus va
natijalar zarurligi, Davlatimiz
rahbari bu ulkan uyg'onishning
boshida turgani, xalqni –
hammani shunga undayotgani,
shuning uchun Prezidentning
konstitutsiyaviy maqomi butun
o'z mohiyati bilan davlat va
millat ramziga aylangani, davlatning butun mahobati,
o'tmishi-yu istiqbolli yaxlitligicha, butun salobati
bilan yo'lbochi qiyofasida namoyon bo'layotgani
samimiy tarzda ifodalangan.

(4-sahifada o'qiling)



YANGI O'ZBEKISTONNING O'N YILLIK TARAQQIYOT YO'LI:

ISLOHOTLAR, BUNYODKORLIK VA YANGICHA TAFAKKUR

Jadid namoyandalari "islohot" so'zining o'zagini "isloh" deb belgilab, "yaxshilikka o'zgarish" deb talqin etganlar va ana shunday yuksalishga imkon beradigan zamoni orzu qilganlar. Bugun yurtimizda kechayotgan olamshumul yangilanish va yuksalishni nafaqat millatimiz oydinlari, balki xorijiy mutaxassislar ham chinakam buyuk tarixiy islohot deb baholashyapti.

Shavkat Mirziyoyev 2016-yilda Davlat rahbari etib saylanganidan buyon O'zbekiston hayotining deyarli barcha sohalarida keng ko'lami o'zgarishlar amalga oshirildi. Mazkur jarayonni birgina iqtisodiy yoki siyosiy islohotlar bilan belgilab bo'lmaydi. O'zbekistonning tashqi dunyoga ochilishi, davlat va jamiyat munosabatlarining yangilanishi, inson huquqlari, ijtimoiy adolat, milliy qadriyatlar va zamonaviy taraqqiyotga bo'lgan yondashuvlar o'zgardi.

Xalqning og'irini yengil qilish, uning muammolarini vaqtida va samarali yechish, odamlarning hayot darajasi va sifatini yaxshilash barcha islohotlarning bosh maqsadi etib belgilandi. Albatta, eski tizimni batamom o'zgartirib, oldinga qo'yilgan maqsadga to'liq erishdik, deb aytilishga hali erta. Ammo O'zbekistondagi o'zgarishlar vaqtinchalik hodisa emas.

Prezident Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi uzoqni ko'zlab yuritilayotgan pragmatik xalqchil siyosat tadrijiy olib boriladi va hech qachon ortga qaytmaydi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2016-yil 8-sentyabrdan Prezidentlik vazifasini bajarishni Bosh vazirning virtual qabulxonasini tashkil qilishdan boshladi. Qabulxonalar xalq va davlat o'rtasidagi "yetti paxsa" devorlar, qatlama "filtrlar"ni olib tashlashga yo'l ochdi. Oqibatda,



xalqning dardi to'g'ridan to'g'ri hukumatga yetib boradigan tizim yaratildi.

Bu Davlat rahbariga jamiyat rivoji uchun aniq choralar ishlab chiqish imkonini berdi, xalq va davlat o'rtasidagi aloqalar mustahkamlandi, "ko'p yopiqli qozon"lar ochilib ketdi, xalqda davlat boshqaruviga o'z ta'sirini o'tkazish imkoniyati paydo bo'ldi, haqiqiy demokratiya tamoyillari amalda ishlay boshladi.

Hozir, islohot ibtidosidan salkam o'n yil o'tgandan keyin ko'pchilik o'sha davrlarni esidan chiqarib qo'yganday ko'rinadi: xuddi har doim shunday erkin, bemalol hayot bo'lganday,

yoshlar nazarida esa, jamiyatimizdagi ochiqlik, erkinlik muhiti tabiiy holdek go'yo...

SO'Z ERKINLIGI VA OCHIQ JAMIYAT SARI DADIL QADAM

So'nggi yillarda O'zbekistonda eng ko'zga ko'ringan o'zgarishlardan biri – axborot muhiti va jamoatchilik muloqotining sezilarli darajada ochildir. Ilgari ko'plab muammolar rasmiy axborot vositalarida deyarli tilga olinmas, mahalliy hokimiyatlar faoliyati, kommunal muammolar, korrupsiya, ta'lim va tibbiyotdagi kamchiliklar haqida ochiq yozish qiyin edi. Bugun esa

jurnalistlar, blogerlar va faol fuqarolar jamiyatdagi dolzarb masalalarni keng muhokama qilmoqda.

OAV va ijtimoiy tarmoqlar aholi bilan davlat organlari o'rtasidagi muhim muloqot maydoniga aylandi. Bu jarayon davlat boshqaruviga ham ta'sir ko'rsatdi. Rahbarlar jamoatchilik fikrini inobatga olish, matbuot bilan muloqot qilish, aholi murojaatlariga javob berish zarurligini anglay boshladi.

Yangi O'zbekistonning ochiq va erkin ekanligiga tan bermaslikning hech iloji yo'q. O'zbekistonda OAVni erkinlashtirish jarayonlarini kuzatish davomida ushbu jarayonlar jadallashganligi va

ijobiy xarakterga ega bo'layotganligini ko'rish mumkin. Eng avvalo, so'z erkinligini ta'minlash bo'yicha qonunchilik bazasi takomillashtirildi, ko'plab qonun hujjatlari va farmonlari qabul qilindi. Bugun jurnalistlar qatorida blogerlar axborot makonida qattiq raqobat olib borishmoqda. Bu albatta, Shavkat Mirziyovning siyosiy irodasi bilan boshlangan islohotlarning mevasi.

Sohadagi asosiy natija – faqat so'z erkinligi to'liq qaror topdi, degan xulosa emas, balki mamlakatda ochiq muloqot va jamoatchilik nazorati uchun yangi muhit shakllanayotganidir.

MAJBURIY MEHNAT BARHAM TOPDI

O'zbekistonning eng muhim ijtimoiy islohotlaridan biri paxta yig'im-terimida majburiy mehnatni tugatish bo'ldi. Ko'p yillar davomida paxta terimiga o'qituvchilar, shifokorlar, talabalar, byudjet tashkilotlari xodimlari va boshqa aholi qatlamlari majburan jalb etilar edi. Ahvol shu darajaga yetib bordiki, paxtazorni ikkinchi uyimiz deb atadik, lekin kosamiz oqarmadi. Maktab bolalari ham paykalga haydaldi. Yaqin-yaqingacha har yili taxminan 6-7 million odam paxta terimiga majburan safarbar etilardi.

Muallimning obro'si, sha'ni, qadri hamin-qadarligi tufayli, aksariyat o'qituvchilar ishini tashlab, boshqa sohalariga o'tib ketdi. Tizimda erkak o'qituvchilar deyarli qolmadi. Ta'lim sifati va samaradorligi, o'qituvchilarning sifat tarkibi ham shunga mutanosib edi. Davlatimiz rahbarining talabi va topshirig'i asosida o'qituvchi va o'quvchi, umuman, ijtimoiyat vakillari barcha majburiy yumushlardan ozod etildi.

Ta'limdagi boshboshdoqlikka barham berildi: maktab 11 yillikka o'tdi, litsey va kollejlari qayta ixtisoslashtirildi.

(Davomi 2-sahifada)

FAKT

✓ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Toshkent – Samarqand yo'nalishidagi pullik muqobil avtomobil yo'li qurilishiga tamal toshi qo'ydi.

✓ O'zbekiston ilk bor 9–16-avgust kunlari 38-Xalqaro informatika olimpiadasiga mezbonlik qiladi.

✓ Xorazm Ma'mun akademiyasi bosh ilmiy xodimi, professor Umida Baltayeva Xalqaro Matematika Ittifoqining Rivojlantirayotgan davlatlar qo'mitasi a'zolariga saylandi.

✓ O'zbekiston tarixi davlat muzeyi qayta ochilishi munosabati bilan 24–26-iyul kunlari yurtimiz fuqarolari uchun bepul tashriflar tashkil etiladi.

ISLOHOT VA HAYOT

“MUQADDAS MASKANIM – JANNATMONAND SO'X!”

O'zbekistonning xushmanzara, bahavo, tog'yon bag'rida joylashgan tumanning odamlari saxovatpesha, mehnatkash va bag'rikeng.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti

(Davomi 3-sahifada)



VATAN MANZUMASI

Zarifa ERALIYEVA

Shukrona

Har tong poyimizga nur to'shar quyosh,
Dillarni uyg'otar Hurlik bahori.
Chechaklar kulgusi toshlarga talosh,
Qushlar sayrog'ida Tinchlik alyor.

Elga madadkorim, yurtga yelkadosh –
Suyib suyanganim, jon-jahonimsan.
Bag'ringda har millat do'st-inoq, dildosh,
Toshkent viloyatim, sharaf-shonimsan!

Qulluq, ey mehnatda toblangan diyor,
Angren, Olmaliq – ma'danlar koni!
Bekoboddek bo'ston yana qayda bor?!
Yangiyo'l – mehrning bug'doyi noni...

Bo'stonliq – ulug'lar bosh qo'ygan tuproq,
Qutlug' Zangiota – aziz makonim.
Elga ma'rifatdan nur tutgan chiroq –
Qadim Parkent, ko'hna Ohangaronim!

Hormangiz yurt sha'nin o'ylab tinmagan,
Yuqorichirchiqlik azamat sherlar.
Yaratish ishqida orom bilmagan
Toshkent-u, Chirchiqlik bunyodkor erlar!

Qibray – tadbirkorlar maskani azal,
Piskent, O'r'tachirchiq tarixi doston.
Kundan kun oboddir, kundan kun go'zal,
Bo'ka, Quyi Chirchiq, Chinoz, Oqqo'rg'on!

Yuraklar shodlikdan ayladi honish,
Qarang, bir mo'jiza qad rostlar bu on.
Tillarda shukrona, dillarda yonish –
Salom, Yoshlar shahri – yangi Nurafshon!

Bugun sening bag'ring nurdan yorug'roq,
Mening-da, g'ururdan balanddir boshim!
Bu yurtdan armonlar ketsin deb yiroq
Baxt – tamal toshini qo'ydi Yurtboshim!

KITOBINGIZNI O'QIDIM

Shoir Shahriyor Shavkatning Afg'oniston safarini ijtimoiy tarmoqlar orqali kuzatib bordim. Safar haqida gazetada e'lon qilingan ikki-uch maqoladan ham xabardorman. Yaqinda Shahriyordan Telegram ilovamga shunday xabar keldi: "Assalomu alaykum. Yaxshimisiz? Sizga bir kitob atagandim, qayerga olib boray?" Xabarni o'qib, "Jadid" gazetasi 2025-yildagi eng sara maqolalar to'plamini nashr qilgan chog'i", deb o'yladim. Biroq keyingi yozishmalardan "Hirota, bobomning huzuriga!" nomli kitob nashr etilgani oydinlashdi. Muallifga muborak, elga manfaatli bo'lsin!



Safarnoma sabog'qlari

So'ngi vaqtda elektron kitoblarni afzal ko'rib qoldim. Yuki yengil, smartfoningiz yoningizda bo'lsa – bas, kun, tun, qor, yomg'ir, anomal issiq yo sovuqni bahona qilmay, xohlagan joyda o'qib ketaverasiz. Buning ustiga o'zingizga ma'qul alifboga ham o'girib olishingiz mumkin. "Bosmasini keyinroq olarman, elektron varianti bo'lsa, o'shani tashlang", deb yozdim Shahriyorga. Tashlab berdi. Ikki-uch kun, ishdan so'ng uyga borganda uyqu oldidan o'qidim. Va kitobdagi o'zimni ta'sirlantirgan voqealar, boshqalarni ham ta'sirlantirishi kerak bo'lgan hodisalar haqida yozgim keldi...

Kitobni o'qib tugatgach, xayolimga kelgan dastlabki tasavvurim: Toshkent qishi. Endigina qor yog'ib o'tgan. "Jadid" gazetasi tahririyati joylashgan binodan safar xaltasini orqalagan Shahriyor chiqib keladi.

(Davomi 7-sahifada)



ISLOHOTLAR, BUNYODKORLIK VA YANGI GACHA TAFAKKUR

Boshlanishi 1-sahifada.

Maktab o'qituvchilarining oylik maoshlari 2-3 baravar, oliy ta'lim professor-o'qituvchilarining oyliqi 3-4 baravar ko'paytirildi. O'qituvchilarning jamiyatda obro'sini, ijtimoiy maqomini oshirish maqsadida Yangi Konstitutsiyada alohida 52-moddada qabul qilindi. So'nggi yillarda davlat majburiy mehnatni cheklash va unga barham berish bo'yicha qat'iy choralar ko'rdi.

Eng muhimi, paxtaga endi faqat xom ashyo sifatida emas, balki chuqur qayta ishlangan tayyor mahsulot manbayi sifatida qaralib, ip-kalava, mato, kiyim-kechak va tayyor brend mahsulotlar ishlab chiqarishga e'tibor kuchaydi.

Natijada moddiy foyda karrasiga oshdi.

KONSTITUTSIYAVIY ISLOHOTLAR VA YANGI HUQUQIY POYDEVOR

O'zbekistonda 2023-yilda o'tkazilgan Konstitutsiyaviy islohotlar (yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning qabul qilinishi) shunchaki huquqiy hujjatni yangilash emas, balki mamlakatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish yo'nalishini tubdan o'zgartirishga qaratilgan strategik qadam bo'ldi. Prezident Shavkat Mirziyoyev ushbu islohotlarni boshlash orqali davlat va jamiyat boshqaruvini yangi bosqichga olib chiqishni maqsad qilganligini ta'kidlash o'rinni bo'lardi.

Ilgari amal qilgan tizimda davlat manfaatlari inson manfaatlaridan ustun deb qaralar, shu sababdan, islohotdan ko'zlangan asosiy maqsad ushbu munosabatni tubdan o'zgartirish bo'ldi.

Prezidentimizning yana bir maqsadi davlat idoralarining fuqaro oldidagi mas'uliyatini qonuniy mustahkamlashdan iborat bo'lib, qonunlardagi noaniqliklar va ziddiyatlar fuqaro foydasiga hal qilinishi qonunlar mustahkamlandi.

Konstitutsiyaviy islohotlar orqali davlat hokimiyati tizimini muvozanatlashga erishildi. Oliy Majlisning Hukumat faoliyati ustidan nazorat funksiyalari kengaytirildi. Bosh vazir va vazirlar nomzodlarini tasdiqlashda parlamentning ishtiroki kuchaytirildi. Mahalliy darajada ijro hokimiyati (hokimlar) va qonun chiqaruvchi hokimiyat (Xalq deputatlari Kengashlari) vakolatlari alohida bo'ldi. Ilgari hokim bir vaqtning o'zida Kengash raisi ham edi (o'zini o'zi nazorat qilardi), yangi tartib bilan bu ikki vakolat bir-biridan ajratildi.

Shavkat Mirziyoyev ushbu islohotlarga tashabbuskorlik qilish orqali bir qator strategik maqsadga erishishni ko'zlaganligi bugun ma'lum bo'lyapti. Eng avvalo, tizimning orqaga qaytmisligi ta'minlandi. Eski, yopiq va avtoritar davlat modeliga qaytish yo'llari qonunlar yopib tashlandi.

Ochiqlik, so'z erkinligi va bozor iqtisodiyoti tamoyillari asosiy qonunda muhrlandi. Davlat va fuqaro o'rtasida yangi ittifoq yaratildi.

Bunda fuqaro davlatga sodiq bo'ladi, davlat esa o'z navbatida fuqaroning ta'limi, sog'lig'i, uy-joyi va erkinligini ta'minlashni o'z zimmasiga oladi.

MUDOFAA VA XAVFSIZLIK

O'zbekistonda so'nggi o'n yil ichida mudofaa va davlat xavfsizligi tizimida amalga oshirilgan islohotlar mavlatlar tarixidagi eng tizimli va chuqur o'zgarishlardan biri bo'ldi. Ilgari konservativ, ko'p jihatdan yopiq va sovet harbiy modeli andozalariga tayangan Qurolli Kuchlar bugungi kunda tezkor, yuqori texnologik va zamonaviy xavf-xatarlarga javob bera oladigan mobil armiyaga aylandi.

2018-yil boshida O'zbekiston tarixida ilk bor mutlaqo yangi, mohiyatan mudofaa xususiyatiga ega bo'lgan Mudofaa doktrinasini qabul qilindi. Natijada O'zbekistonning harbiy siyosati ochiq va pragmatik tus oldi. Hujjatda O'zbekistonning harbiy bloklarga qo'shimasligi, o'z hududida xorijiy harbiy bazalarning joylashtirilishiga yo'l qo'ymasligi va harbiy xizmatchilarning xorijdagi tinchlikparvarlik operatsiyalarida ishtirok etmasligi qat'iy belgilandi. Bu mintaqadagi yirik geosiyosiy o'yinchilar o'rtasidagi muvozanatni saqlashga xizmat qilmoqda.

Prezident tashabbusi bilan mahalliy hokimiyat organlari va armiya o'rtasidagi uzilishni bartaraf etish uchun dunyo tajribasida kam uchraydigan Harbiy-ma'muriy sektorlar tashkil etildi. Viloyatlar hokimlari o'z hududlaridagi harbiy sektor rahbarlari etib tayinlandi. Bu armiya infratuzilmasini yaxshilash, harbiy shaharchalarni modernizatsiya qilish va safarbarlik tayyorgarligini mahalliy byudjetlar hisobidan tezkor moliyalashtirish imkonini berdi. Eng muhimi, "armiya va xalq birligi" konsepsiyasi qo'g'ozdan amalioyotga ko'chdi.

Ilgari O'zbekiston harbiy texnika va hatto oddiy o'q-dorilarni ham to'liq import qilardi. 2017-yilda Mudofaa sanoati davlat qo'mitasi (hozirgi Mudofaa sanoati agentligi) tashkil etildi. Mamlakatda ilk bor harbiy texnikalarni mahalliy ishlab chiqarish va modernizatsiya qilish yo'lga qo'yildi.

Eski sovet harbiy o'qitish usullaridan butunlay voz kechildi.

Qurolli Kuchlar akademiyasi tubdan qayta tashkil etildi va u yerda eng zamonaviy simulyatorlar, kiberxavfsizlik bo'limlari va vaziyatni tahlil qilish markazlari yaratildi. O'qitish dasturlariga sun'iy intellekt, raqamli xaritalar va zamonaviy urushlar tajribasi kiritildi. Natijada



mustaqil va ijodiy fikrlaydigan yangi avlod ofitserlar korpusi shakllandi.

Ilgari harbiy xizmat kam daromadli va ijtimoiy himoyalangan soha hisoblangan bo'lsa, Davlatimiz rahbarining e'tibori va g'amxo'rligi natijasida harbiy xizmatchilar va ularning oilalari uchun tizimli imtiyozlar paketi joriy etildi. Yuzlab zamonaviy harbiy shaharchalar qurildi, harbiylarga imtiyozli uy-joylar berish tizimi yo'lga qo'yildi.

Nafaqadagi harbiylarning ijtimoiy ta'minoti yaxshilandi. Harbiylar farzandlariga oliygohlarga kirishda alohida kvotalar ajratildi. Bu choralar natijasida armiyada xizmat qilish nufuzi keskin oshdi.

Ushbu tizimli islohotlar natijasida O'zbekiston Qurolli Kuchlari dunyo armiyalarining jangovar salohiyatini baholovchi nufuzli Global Firepower xalqaro reytingida uzoq yillardan beri Markaziy Osiyoda mutlaq yetakchilikni saqlab kelmoqda va dunyoning kuchli 60 ta armiyasi qatoridan muqim joy olgan.

Prezidentimiz tashabbusi bilan o'tkazilgan mudofaa va xavfsizlik sohasidagi islohotlar O'zbekistonni mintaqadagi eng barqaror va mudofaa qobiliyati kuchli davlatga aylantirdi. Bugungi o'zbek armiyasi nafaqat davlat suvereniteti va chegaralari daxlsizligining kafolati, balki mamlakat ichida amalga oshirilayotgan barcha siyosiy va iqtisodiy islohotlarning tinch va osoyishta muhitda kechishini ta'minlovchi eng asosiy tirg'kdir.

QURILISH VA BUNYODKORLIK: SHAHARSOZLIK

Ilgari oddiy aholi uchun yangi qurilgan ko'p qavatli uylardan xonadon sotib olish juda murakkab, ipoteka tizimi esa deyarli mavjud emas edi. Endi esa mamlakatning barcha hududlarida zamonaviy, ekologik toza va ko'p qavatli turar joylarni o'z ichiga olgan yaxlit "Yangi O'zbekiston" massivlari barpo etildi. Bu uylar atrofidagi maktablar, bog'chalar va tibbiyot maskanlari bir vaqtning o'zida qurilmoqda. Ehtiyojmand oilalar, xotin-qizlar va yosh oilalarga boshlang'ich badal yoki foiz xarajatlarini qoplash uchun davlat tomonidan tizimli ravishda subsidiyalari ajratilishi yo'lga qo'yildi. Islohotlarning eng muhim falsafiy jihati – investitsiyalarning faqat yirik shaharlarda markazlashib qolmay, chekka qishloq va mahallalarga kirib borgan bo'ldi. "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari doirasida uzoq yillar davomida e'tibordan chetda qolgan minglab mahallalarda ichki yo'llar asfaltlandi, toza ichimlik suvi va elektr tarmoqlari tortildi, infratuzilma tubdan yangilandi. Qaysi mahallada nima qurilishi yoki ta'mirlanishini hokimlar emas, balki aholining o'zi ovoz berish yo'li bilan aniqlaydigan shaffof tizim – "Tashabbusli byudjet" yaratildi.

O'zbekiston shaharlarini xalqaro moliyaviy, madaniy va sayohatlik markazlariga aylantirish uchun yangicha shaharsozlik modellari joriy etilgan yurtimiz ko'rkiga ko'rk qo'shayotir. Poytaxt markazidagi Tashkent City majmuasi zamonaviy osmono'par binolari, kongress-xollari va yashil bog'lar bilan mamlakatning yangi, ochiq va texnologik qiyofasiga aylandi. Poytaxtimizning ekologik va transport tizimini yengillatish uchun Chirchiq daryosining narigi sohilida mutlaqo yangi, yashil va aqlli "Yangi Toshkent" loyihasi barpo etilishi boshlandi.

Yirik shaharlarda tirbandliklarni kamaytirish va hududlararo aloqalarni tezlashtirish uchun ulkan infratuzilma loyihalari amalga oshirildi. Toshkent metropolitenining Yer usti halqa yo'li va Sergeli yo'nalishlari qurilib, tizim ikki barobardan ziyodga kengaytirildi.

Shaharlarda o'nlab ko'p darajali ko'priklar, yo'l o'tkazgichlar qurildi. Temir yo'llar elektrlashtirilib, "Afrosiyob" tezyurar poyezdlari Buxoro va Xivagacha uzaytirildi. Bunyodkorlik ishlarida tarixiy an'analar va milliy me'morchilikni saqlab

qolishga alohida e'tibor qaratildi. Samarqanda "Buyuk Ipak yo'li" majmuasi va undagi "Boqiy shahar" etnografik parki Sharq va G'arb madaniyatini birlashtirdi. Toshkentda barpo etilgan Islom sivilizatsiyasi markazidek muazzam majmua o'zbek me'morchiligi an'analar asosida qurilgan ilmiy-ma'rifiy durdona hisoblanadi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan olib borilayotgan bunyodkorlikning asosiy mezonini faqat bino soni emas, balki uning inson hayotiga qanchalik qulaylik olib kirishi bo'lishi kerak.

YURISPRUDENSIYA VA SUD-HUQUQ TIZIMIDAGI O'ZGARISHLAR

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan "Qonun ustuvor – jazo muqarrar" va "Sud – adolat qo'rg'oni" tamoyillari asosida tizimda inqilobiy o'zgarishlar qilindi.

2016-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston sud tizimida oqlov hukmi chiqarilishi deyarli mumkin bo'lmagan hodisa edi (yiliga barmoq bilan sanari oqlov hukmlari chiqarilardi). Agar jinoyat ishi sudga yetib kelsa, shaxs muqarrar ravishda aybdor deb topilardi. Ammo so'nggi 10 yil ichida sudlar tomonidan minglab fuqarolarga nisbatan oqlov hukmlari chiqarildi. Bu tergov organlarining xato va kamchiliklarini sudlar tomonidan ochiq fosh etish va fuqarolarning haq-huquqlarini haqiqiy himoya qilish imkonini berdi. Ilgari oddiy fuqaro yoki tadbirkor mahalliy hokim yoki davlat organining noqonuniy qarori ustidan shikoyat qilishi o'ta murakkab bo'lib, sudlar davlat idorasi tarafini olishga moyil bo'lganligini hammamiz yaxshi bilardik.

Eng katta og'riqli masalalardan biri tergov paytida jismoniy kuch yoki ruhiy bosim ishlatib, soxta ko'rsatmalar olish edi. Prezident farmoni bilan qiyonoqlar yoki ruhiy bosim ostida olingan har qanday dalil sud tomonidan mutlaqo maqbul emas (yarqosiz) deb topilishi belgilandi. Tergov izolyatorlari va so'roq xonalari majburiy ravishda 100 foiz videokuzatuv kameralari bilan jihozlandi. Videoyozuvsi olingan ko'rsatmalar qonuniy kuchini yo'qotdi. Jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan faqat jazolash emas, balki ularni jamiyatga qayta moslashtirish tizimiga o'tildi.

2019-yilda Prezident qarori bilan xalqaro hamjamiyat va inson huquqlari tashkilotlari tomonidan ko'p tanqid qilingan, Qoraqalpog'istonning chekka hududidagi Qorovulbozor (Josliq) jazoni ijro etish koloniyasi butunlay tugatildi. Bu qadam O'zbekistonning xalqaro obro'sini keskin yuksaltirdi.

Ilgari deyarli qo'llanilmagan Prezident afv etish instituti tizimli ishga tushdi. Diniy va siyosiy sabablar bilan qamalagan, xatosini anglagan minglab mahkumlar afv etilib, oilasi bag'riga qaytarildi. Sudlar faoliyatining raqamlashtirilishi qo'g'ozbozlik va sud idoralaridagi navbatlarga barham berish maqsadida amalga oshirildi. Shaffoflik ko'zgusi sifatida "E-XSUD" axborot tizimi ishga tushirildi.

Bu o'zgarishlar aholining adolatga va davlatning huquqiy kafolatlariga bo'lgan ishonchini tiklashda bosh omil bo'lib xizmat qilmoqda.

TASHQI SIYOSATDA OCHIQLIK VA PRAGMATIZM

O'zbekiston yetakchisining siyosiy irodasi va pragmatik tashqi siyosati tufayli butun Markaziy Osiyo mintaqasining geosiyosiy iqlimi tubdan o'zgardi. 2016-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston tashqi siyosatda ko'p jihatdan izolyatsiya, ehtiyotkorlik va qo'shni davlatlar bilan tizimli kelishmovchiliklar girdobida qolganligi ma'lum. Chegaralarning yopiqligi, minalashtirilgan tog'li hududlar, viza rejimlari, suv-energetika masalasidagi keskin bayonotlar va doimiy chegara nizolari mintaqani xalqaro maydonda "porox bochkasi" sifatida ko'rsatardi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev hokimiyat tepasiga kelganidan so'ng "Markaziy Osiyo – O'zbekiston tashqi siyosatining bosh ustuvor yo'nalishi" degan konseptual g'oyani ilgari

surdi. Bu qadam qo'shni davlatlar bilan munosabatlardagi ko'p yillik "muzliklarning erishiga" sabab bo'ldi.

2016-yilgacha Toshkent va Dushanbe munosabatlari o'ta keskin edi. Bahs markazida Tojikiston tomonidan qurilishi boshlangan Rog'un GESi turardi. O'zbekistonning sobiq rahbariyati bu loyihaga keskin qarshi chiqib, suv taqchilligi haqida bayonotlar bergan, hatto mintaqada "suv urushlari" boshlanishi mumkinligidan ogohlantirgan edi. Ikki davlat o'rtasida temir yo'l qatnovi to'xtatilgan, tog'li chegaralar minalashtirilgan va qat'iy viza tizimi joriy etilgan edi.

Shavkat Mirziyoyevning qat'iyati va irodasi bilan Rog'un GESi bo'yicha e'tirozlar to'xtatildi. O'zbekiston nafaqat bu loyihaga qarshilik qilishni bas qildi, balki Tojikiston bilan Zarafshon daryosida qo'shma GESlar qurish bo'yicha kelishuvga erishdi.

Tog'li hududlar minalardan to'liq tozalandi. 25 yil davomida yopiq bo'lgan chegara o'tkazish punktlari ochildi. Davlatlar o'rtasida 30 kunlik vizasiz rejim joriy etildi, aviareyslar va avtobus qatnovlari tiklandi.

Bugungi kunda O'zbekiston va Tojikiston munosabatlari ittifoqchilik darajasiga ko'tarildi.

Farg'ona vodiysidagi O'zbekiston va Qirg'iziston chegarasi uzoq yillar davomida qonli to'qnashuvlar, mahalliy aholi o'rtasidagi nizolar va yallovlar ustidagi bahslar o'chog'i edi. So'x va Shohimardon kabi anklavlarga borish-kelish oddiy odamlar uchun chinakam azobga aylangandi. Ikki davlat rahbarlarining siyosiy ishorati tufayli chegara demarkatsiyasi masalasi 100 foiz hal qilindi. Andijon (Kampirobod) suv ombori bo'yicha tarixiy kelishuv imzolandi. Suv ombori hududi va undan foydalanish masalasi ikki tomon manfaatlarini inobatga olgan holda muvofiqlashtirildi. So'x anklaviga olib boruvchi yo'llar ochildi, chegara punktlaridagi uzun navbatlarga barham berildi. "Qambarota-1" GESi qo'shma qurilishi va asr loyihasi hisoblangan "Xitoy – Qirg'iziston – O'zbekiston" temir yo'li qurilishi bo'yicha kelishuvlar imzolaniib, amaliy ishlar boshlandi.

Qozog'iston va Turkmaniston bilan munosabatlar ham yangi sifat bosqichiga chiqdi. Markaziy Osiyoning lokomotivlari hisoblangan O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi raqobat o'rni yaqin hamkorlik egalladi. Munosabatlar ittifoqchilik darajasiga ko'tarildi. Chegara hududida Markaziy Osiyo xalqaro sanoat hamkorligi markazi barpo etilmoqda. Ikki davlat tashqi siyosiy masalalarda blok bo'lib harakat qilmoqda. Turkmaniston bilan suv resurslarini boshqarish bo'yicha tarixiy shartnomalar imzolandi. Kaspiy dengizi va Eron orqali tranzit yo'laklaridan birgalikda foydalanish bo'yicha kelishuvlar erishildi.

Chegaraladi erkin savdo zonalarini tashkil etildi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning eng katta xalqaro tashabbuslaridan biri – Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari formatini tashkil etish bo'ldi. Bu nima berdi? Ilgari mintaq rahbarlari faqat Moskva, Pekin, Vashington yoki Bryussel vositachiligida uchrashardi.

Maslahat uchrashuvlari formati esa besh qo'shni davlat rahbariga hech qanday tashqi – uchinchi omil ishtirokisiz, to'g'ridan to'g'ri uchrashib, ichki muammolarni muhokama qilish imkonini berdi. Bu format Markaziy Osiyoning xalqaro maydondagi yagona geosiyosiy subyekti sifatidagi vaznini keskin oshirdi. Endilikda "AQSH + Markaziy Osiyo" (C5+1), "Xitoy + Markaziy Osiyo", "Germaniya + Markaziy Osiyo", "Ko'rfaz davlatlari + Markaziy Osiyo" kabi yirik xalqaro sammitlar muntazam o'tkazilib, ularni mintaqa tarqoq emas, balki bir yoqadan bosh chiqarib gapiradigan blok sifatida ishtirok etmoqda.

Qo'shnilar bilan munosabatlarni sog'lomlashtirish O'zbekistonga jahonning yirik kuch markazlari bilan munosabatlarda kuchli pozitsiyani taqdim etdi. O'zbekiston Xitoy, Rossiya, AQSH, Yevropa Ittifoqi va Ko'rfaz arab davlatlari bilan teng masofadagi, milliy manfaatlariga asoslangan muvozanatli siyosatni olib bormoqda. Ayniqsa, so'nggi paytlarda kuzatilyotgan global geosiyosiy qarama-qarshiliklar (Ukrainadagi urush, AQSH va Xitoy raqobati) fonida O'zbekiston hech bir blokka qo'shilmasdan, o'z mustaqil pozitsiyasini saqlab qolishga muvaffaq bo'lmoqda.

O'zbekiston xalqaro maydonda yopiq va ehtiyotkor davlat emas, balki muloqotga ochiq, o'z manfaatlarini himoya qiladigan va mintaqaviy jarayonlarda faol ishtirok etuvchi davlat sifatida namoyon bo'ldi.

MILLIY QADRIYATLAR, TIL VA TARIXGA MUNOSABAT

So'nggi yillarda milliy qadriyatlarga, tarixiy merosga, davlat tiliga va milliy o'zlikni anglashga munosabat sezilarli darajada o'zgardi.

Buyuk ajdodlar – Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Abu Ali ibn Sino, Muhammad al-Xorazmiy, Beruniy va boshqa allomalarni merosini o'rganishga keng e'tibor berildi. Tarixiy shaharlar – Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz, Shahrisabz va Qo'qonning madaniy salohiyatini rivojlantirish, ularni xalqaro

turizm markazlariga aylantirish bo'yicha ishlar amalga oshirildi. Davlat tilining maqomini mustahkamlash, o'zbek tilini zamonaviy ilm-fan, texnologiya, davlat boshqaruv va xalqaro muloqot tiliga aylantirish vazifasi belgilab berildi. Shu bilan birga, O'zbekistonda yashayotgan barcha millat va elatlarning tili va madaniyatiga hurmat tamoyili saqlanmoqda.

Milliy qadriyatlar zamonaviy taraqqiyotga qarshi qo'yilmayotgani muhim. Aksincha, milliy o'zlik, tarixiy xotira va zamonaviy bilim uyg'unligi yangi jamiyatning ma'naviy asosi sifatida qaralmoqda.

ADABIYOT, SAN'AT, FAN VA SPORTGA E'TIBOR

Adabiyot va san'at inson ma'naviyatini yuksaltirish, jamiyatning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Shu sababli so'nggi yillarda ijod maktablari, Prezident maktablari, ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari va madaniy markazlarga e'tibor kuchaydi. Ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash, yosh shoir va yozuvchilarni kashf etish, teatr, kino, musiqa, tasviriy san'at va milliy hunarmandchilikni rivojlantirish bo'yicha dasturlar amalga oshirilmoqda. Muzeylar, kutubxonalar va ilmiy muassasalarni rivojlantirish O'zbekistonning tarixiy va ma'naviy salohiyatini xalqaro maydonda namoyish etishga xizmat qilmoqda. Ilm-fanda ham grantlar, ilmiy markazlar, xalqaro hamkorlik va startaplarni qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari kengaydi. Texnologik taraqqiyot, sun'iy intellekt, raqamli iqtisodiyot, energetika, tibbiyot va agrotexnologiyalar bo'yicha tadqiqotlarga talab oshdi.

Sport sohasida ham O'zbekiston xalqaro musobaqalarda yuqori natijalarga erishmoqda. Olimpiya, Osiyo va jahon chempionatlarida o'zbek sportchilarining muvaffaqiyatlari mamlakat yoshlariga kuchli ruhiy ta'sir ko'rsatmoqda. Sport inshootlari, sport maktablari va ommaviy jismoniy tarbiyani rivojlantirishga e'tibor kuchaydi. Futbol bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi birinchi marta jahon chempionatida ishtirok etdi.

Shaxmatchilarimiz jahon Kubogi bahslarida g'oliblikni qo'lga kiritishdi. Bu ham Yetakchining sportga berayotgan e'tiborining yuksak natijasi.

IQTISODIY VA IJTIMOIY ISLOHOTLAR: INSON KAPITALIGA SARMOYA

O'zbekiston rahbari iqtisodiyotni liberallashtirish, valyuta bozorini erkinlashtirish, soliq tizimini isloh qilish, tadbirkorlikka to'siqlarni kamaytirish va xususiy sektor rolini oshirish bo'yicha muhim ishlar e'tiborni kuchaytirgani bejiz emas. Maqsad aniq. O'zbekiston xalqining roziligiga erishish, mamlakatni rivojlangan mamlakatlar qatoriga olib chiqish. Milliy valyutani konvertatsiya qilish imkoniyati kengaydi, investitsiya muhiti yaxshilandi, xorijiy investorlar bilan hamkorlik kuchaydi. Kichik biznes, oilaviy tadbirkorlik, hunarmandchilik, IT va xizmat ko'rsatish sohalari rivojlandi. Qishloq xo'jaligida klasterlar, zamonaviy agrotexnologiyalar, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish va suv tejoychi tizimlar joriy qilindi. Sanoatda metallurgiya, avtomobilsozlik, elektrotexnika, kimyo, farmasevtika va to'qimachilik tarmoqlarida yangi korxonalar ochildi.

Islohotlarning umumiy maqsadi yaqqol ko'zga tashlanib turibdi.

Birinchidan, O'zbekistonni yopiq va ma'muriy boshqaruvga asoslangan tizimdan ochiq, raqobatbardosh va huquqiy davlatga aylantirish. Ikkinchidan, iqtisodiyotni xom ashyoga qaramlikdan chiqarib, sanoat, texnologiya, ilm-fan va inson kapitaliga tayangan rivojlanish modeliga o'tkazish. Uchinchidan, davlat va jamiyat munosabatlari "davlat – hokim, xalq – ijrochi" degan eski qarash o'rniga "davlat xalqqa xizmat qiladi" tamoyilini qaror toptirish. To'rtinchidan, yoshlarni zamonaviy bilim, kasb va tafakkur bilan qurollantirish orqali Uchinchi Renessans poydevorini yaratish. Beshinchidan, O'zbekistonning xalqaro maydonda ochiq, ishonchli, tinchlikparvar va pragmatik davlat sifatidagi nufuzini mustahkamlash.

Shavkat Mirziyoyevning davlat rahbari sifatidagi o'n yillik faoliyati O'zbekiston tarixida ulkan o'zgarishlar davri sifatida baholanishi aniq. Bu davrda mamlakat tashqi dunyoga ochildi, qo'shnilar bilan munosabatlar yaxshilandi, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar o'z samarasini bera boshladi. Eng asosiysi – mamlakatda yangi siyosiy va ijtimoiy muhit shakllandi. Odamlar o'z fikrini bildirish, davlat organlaridan javob talab qilish, islohotlarni muhokama qilish va hissa qo'shish imkoniga ega bo'lmoqda. Albatta, islohotlarning haqiqiy samarasi faqat qonunlar va qarorlar bilan emas, balki har bir fuqaroning hayotidagi ijobiy o'zgarishlar bilan o'lchanadi. Bu samara nechog'li zalvorli bo'lishi esa, millatning o'z Yetakchisi atrofida yanada jipsroq birlashishi, buyuk maqsadlar yo'lida yakdil va fidoyi bo'lishiga bog'liq. Zero, "Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va yangi kelajak yaratamiz!"

Iqbol MIRZO



“MUQADDAS MASKANIM – JANNATMONAND SO‘X!”

Boshlanishi 1-sahifada.

YANGI HAYOT NAFASI

Insonning dunyoqarashi, tafakkuri va turmush tarziga ta'sir ko'rsatadigan, ona Vatanga muhabbati hamda hayotbaxsh islohotlarga daxldorlik tuyg'usini yuksaltiradigan yangilanishlar jarayoni o'ziga xos tarixiy davrdir. Bu kabi ezgu orzu-maqсадlarga qanot bo'luvchi, ertangi kunga ishonchni mustahkamlovchi ne'matning nomi – hurriyat, tinchlik, obodlik va farovonlik hisoblanadi.

Tarix va taraqqiyot o'zaro mushtarak keladigan So'x tumanida ham so'nggi o'n yillik vaqt – alohida bir davrga aylandi, desak, ayni haqiqat bo'ladi. Bu go'zal go'sha mamlakatimiz hayotining jo'shqin oqimidan aslo chetda emas, shuning uchun ham, tarix so'qmoqlaridan mardonavor o'tib kelayotgan So'x va so'xliklar uchun yangi hayot nafasi – Yangi O'zbekiston yutuqlari behad qadrlidir.

Tuman ahli keyingi yillarda muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning e'tibor va rag'batini har qachongidan ham kuchli, teranroq his etib yashamoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “So'x tumanini 2026–2028-yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, mavjud zaxira va imkoniyatlarni ishga solish orqali aholi bandligini ta'minlash hamda tadbirkorlikni jadal rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori ana shu yuksak e'tibor va g'amxo'rlikning amaldagi yana bir namunasi bo'ldi.

Ta'kidlash joizki, So'xda yangilanish, taraqqiyot va yuksalishning yangi bosqichini boshlab berishga xizmat qiladigan ushbu huquqiy hujjat har bir oila va mahallaga, har bir so'xlikning qalbi va tafakkuriga yangi hayot falsafasini olib kiruvchi hayotbaxsh dastur, g'ayrat-shijoat baxsh etuvchi muhim dasturilamal, yangi imkoniyat va imtiyozlarning yorqin kafolatidir. Davlatimiz rahbari joriy yilning 9-aprel kuni So'x tumanini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari yuzasidan o'tkazilgan yig'ilishda barcha mas'ullarga bu boradagi eng ustuvor vazifalarni belgilab bergan edi. Bularning barchasi mazkur qarorda o'z ifodasini topgan.

El-yurt istiqboliga xizmat qiluvchi qaror ijrosi barcha yo'nalishlarda keng qamrovli ezgu tashabbuslarni hayotga tatbiq etishni nazarda tutadi. Unga ko'ra, turizmi tumanning yangi drayveriga aylantirish maqsad qilingan. Shu asosda So'x



daryosining markazga tutash 5 kilometrlik qirg'og'ida fayzli go'shalar ish boshlaydi. “Sarikanda”, “Ravon”, “Sharqobod” mahallalaridagi 176 gektar maydonda master reja asosida 720 milliard so'mlik investitsiyalar hisobiga zamonaviy kurort-sog'lomlashtirish majmuasi bunyod etiladi.

Navqiron avlod uchun xorijiy tillar va IT kurslari, zamonaviy kutubxonani o'zida jamlagan “Yoshlar markazi” barpo etilishi farzandlarimiz kelajagi uchun eng muhim investitsiyadir. Tumanda tibbiy turizmni rivojlantirish maqsadida tibbiy xizmatlar klasteri tashkil etish va xorijdan malakali mutaxassislar jalb etilishi aholi salomatligi va daromadi barqarorligini parallel ta'minlashga xizmat qiladi.

Islohotlar jarayonidagi izchil sa'y-harakatlar tufayli qishloq xo'jaligi ilg'or agroteknologiyalar, ilm-fan yutuqlari asosida rivojlanadi. Tarmoqda an'anaviy dehqonchilik innovatsion yondashuv bilan boyitiladi. Bu borada amaliy ishlar boshlangan bo'lib, hozirda “Qayroq” massivida “Namangan-Agro Star” MCHJ tomonidan 425 gektar maydonda sanoatlashgan intensiv bog'lar

barpo etilmoqda.

“Chashma” mahallasida esa 25 gektar yerda za'faron yetishtirish yo'lga qo'yiladi. Shu tariqa, jahon bozorida yuqori baholanadigan ziravorlardan birini yetishtirish orqali yaqin istiqbolda tumanni yuqori qo'shilgan qiymatli ekinlar hududiga aylantirish imkoniyati yaratiladi. Shu bilan birga, “Qayroq”, “Javpaya” va “Tul-dash” hududlarida ming gektar yerda serhosil rezavor, o'rik, olxo'ri bog'lari hamda dorivor o'simliklar yetishtirish boshlanadi. Bu ish malakali mutaxassislar ko'magida ado etiladi.

Yangilanish transport-logistikasiz bo'lmazligi sababli, bu yo'nalishda ham katta qulayliklar yaratish ko'zda tutilgan. Xususan, endilikda “Cessna-208 Caravan” va L-410 turdagi havo kemalari orqali muntazam aviaqatnovlar yo'lga qo'yilishi – so'xliklar uchun unutilmas tuhfa, ulkan shodiyonadir. Buning uchun 13 gektar qo'shimcha yer ajratilib, uchish-qo'nish maydoni va yo'lgi kengaytiriladi.


Chegara o'tkazish punktlarida ro'yxatga olish darchalari soni ikki baravar oshiriladi.

Natijada yurtdoshlarimiz va mehmonlar harakatining tez hamda qulay bo'lishi ta'minlanadi.

Albatta, aniq rejalar aniq moliyaviy manbalarga asoslanadi. Tumanga 2026–2028-yillarda davlat byudjetidan 588 milliard so'm mablag' ajratilmoqda. Shundan ijtimoiy soha obyektlariga – 231 milliard, muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasiga 357 milliard so'm yo'naltiriladi.

Xususan, ichimlik va oqova suv ta'minotini yaxshilash bo'yicha 150 kilometr tarmoq va 12 ta suv inshooti qurilishiga – 120 milliard so'm, 94 kilometrlik yo'llarni qurish-ta'mirlash hamda 1 ta ko'priq qurilishiga – 134 milliard so'm, daryo qirg'oqlari va sel yo'llarining 36,2 kilometr qismini ta'mirlashga – 103 milliard so'm, 11 ta mahalladagi 52,3 kilometr elektr tarmog'ini rekonstruksiya qilishga 20 milliard so'm ajratiladi. 2026-yilning o'zida ichimlik suvi, elektr tarmoqlari, avtomobil yo'llari hamda oqova suv tarmoqlarini yaxshilashga 100 milliard so'm mablag' moliyalashtiriladi.

Shu o'rinda alohida e'tirof etish kerakki, elektr ta'minotini yaxshilash maqsadida So'x daryosida qiymati 40,8 million dollar,



Saidbahrom SAIDMUSAYEV,
So'x tuman hokimi

quvvati 15 MVt (yillik o'rtacha ishlab chiqarish quvvati 50 mln kVt/soat) bo'lgan So'x GES qurilishi bo'yicha amaliy ishlar boshlandi. Buning natijasida tumandagi 20 mingdan ortiq xonadon barqaror elektr energiyasi bilan ta'minlanadi.

Muxtasar aytganda, So'x tumanidagi bugungi o'zgarishlar hayratomuz va asrlarga tatigulik. Yil yakunida tumanni ihsizlik va kambag'allikdan xoli hududga aylantirish maqsad qilingani esa barcha jabhalardagi ezgu harakatlarimizga kuch-quvvat baxsh etadi.

Mushtarak maqsadlarimiz bitta, u ham bo'lsa, So'x tumani har jihatdan obod va farovon bo'lib, yangi kun – yangi istiqbolga birgalikda peshvoz chiqishdir. O'zaro hamfikir, hammaslak bo'lsak, hamjihatlikda ishlasak, bu orzularimiz, albatta, ijobat bo'ladi.

O'tgan haftada muhtaram Prezidentimiz raisligida mahallalarga yangi muhit olib kirish hamda “mahalla yetiligi” faoliyatini yangicha tashkil qilish bo'yicha ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tganidan xabardorsiz. Davlatimiz rahbari yig'ilishda samimiy va qat'iy fikrni ta'kidladi: **“Lo'nda aytganda, hududdagi masalalarni hal qilish uchun hokimda ham, mahalla raisida ham, umuman, “yettilik”ning har bir vakilida resurs va vakolat bor. Yetishmayotgan jihat – mas'uliyat va tashabbuskorlik”.**

Bu so'zlar barcha tarmoqlar uchun tegishli, deb o'ylayman. Mas'uliyat va tashabbuskorlik bugungi qalitis zamonada nafaqat rahbarlarning, balki har bir o'zbekistonlikning maslagi bo'lishi kerak. Bu borada Mo'ynoq yo So'x, Denov yoki Zarafshon, Shohimardon yoxud Samarqand degan tafovut yo'q. Ana shunda, jonajon Vatanimiz mustaqilligining 35 yilligi shiorida yangrayotgandek: “Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!”

EL SOG'LIGI – YURT BOYLIGI

So'xda tibbiyot turizmi jadal rivojlanib, tarmoqning investitsiyaviy jozibadorligi ortib borayotgani tufayli yildan yilga tarmoqda yangi va istiqbolli loyihalar hayotga tatbiq etilmoqda.

Ayni kunlarda “Istiqlo” MFYda zamonaviy xususiy klinikani barpo etishga kirishilgani bu boradagi ezgu tashabbuslar bardavom ekanidan dalolat beradi. Loyihaning umumiy qiymati 6 million dollarni tashkil etadi. U so'xlik tadbirkor Gulshan Hatamov va rossiyalik



investorlar hamkorligida amalga oshirilmoqda.

Zamonaviy mezonlar asosida bunyod etiladigan klinika faoliyati orqali aholiga malakali va sifatli tibbiy xizmatlar ko'rsatish ko'lamini yanada oshirish maqsad qilingan. Shuningdek, ushbu loyiha hududda tibbiyot turizmini rivojlantirish, tarmoqda yuqori daromadli yangi ish o'rinlari yaratish hamda soha infratuzilmasini yanada mustahkamlashga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Tadbirkorning qayd etishicha, loyiha doirasida mamlakatimiz va xorijning nufuzli tibbiyot markazlari mutaxassislari hamda malakali shifokorlar ishtirokida murakkab jarrohlik amaliyotlari o'tkazish ham maqsad qilingan. O'z navbatida, mahalliy shifokorlar uchun mahorat darslari, ilmiy-amaliy mashg'ulotlar o'tkazib borish ham rejalashtirilmoqda.

Xususiy shifo maskani qurilishiga kirishilishi munosabati bilan tashkil etilgan tantanali tadbirda Farg'ona viloyati hokimi Xayrullo Bozorov qatnashib, So'xda ayni yo'nalishda olib borilayotgan ishlarni yuksak e'tirof etdi. Tadbir davomida nuroniylar ishtirokida duolar qilinib, ezgu tashabbus ijobat bo'lishi uchun yaxshi niyatlar bildirildi.

QIZILQIYOQ CHIROQLARI

Ayni paytda mamlakatimizda muqobil energiya manbalaridan samarali foydalanish, bu boradagi tabiiy imkoniyatlar va qulayliklarni ishga solish bo'yicha tizimli

HAR JABHADA OBODLIK



ishlar yo'lga qo'yilgan. So'x tumanining “Qizilqiyog” mahallasida qurilayotgan, quvvati 15 megavatt bo'lgan gidroelektr stansiyasi loyihasi ham mazkur jarayondagi izchil sa'y-harakatlarning mantiqiy davomi hisoblanadi.

Investitsiya loyihasi “O'zbekgidroenergo” AJ tomonidan amalga oshiriladi. Loyihaning ijtimoiy ahamiyati ham yuqori bo'lib, qurilish ishlari jarayonida 800 nafar fuqaroning bandligi ta'minlanishi maqsad qilingan. Zamonaviy GES foydalanishiga topshirilgach esa 17 ta doimiy ish o'rni yaratiladi.

Ta'kidlash o'rinni, loyiha to'liq ishga tushirilganidan so'ng yiliga o'rtaacha 50 million kVt-soat elektr energiyasi ishlab chiqariladi. Bu esa So'x tumanining elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojining salmoqli qismini qoplab, 20 mingdan ortiq xonadonning muhim hayotiy ta'minot masalasi to'liq hal etilishiga xizmat qiladi. Shuningdek, ijtimoiy soha obyektlari va tadbirkorlik subyektlari barqaror ravishda elektr manbayi bilan ta'minlanadi.

O'z navbatida, ushbu xayrli tashabbus tabiiy suv resurslaridan samarali foydalanish, sug'oriladigan yerlarning suv ta'minotini yaxshilash, hudud iqtisodiyotini rivojlantirish va turizm salohiyatini yanada oshirish imkonini beradi.

OBIDALAR CHORLAYDI

So'x asrlar mobaynida ajdodlar va avlodlar o'rtasidagi mushtarak qadalar uzuvligini ta'minlab kelayotgan muqaddas qadamjo hamda ziyoratgohlari bilan ham mashhur. Bugun tarixiy-madaniy obidalarni obodonlashtirish orqali tumanda ziyorat turizmini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilayotgani bejiz emas. Darhaqiqat, tumanda asrlar davomida o'z qadr-

qimmatini yo'qotmay, qadriyat va an'analarga uyg'un holda saqlanib kelayotgan bunday maskanlar bilan har qancha faxrlansak arziydi. Bugungi kunda ham tumanning har bir hududida bu kabi noyob osori-atikalarni uchratish mumkin.

Yaqinda viloyat rahbarlari ishtirokida o'tgan uchra-shuvda ana shunday tarixiy va muqaddas qadamjolaridan biri – “Sangi navishta” ziyoratgohida amalga oshirilishi belgilangan vazifalar sarhisob etildi. Muloqotda ziyoratgoh hududini yanada obodonlashtirish, infratuzilmani yaxshilash, ziyoratchilar uchun zamonaviy va qulay sharoitlar yaratish borasidagi muhim vazifalar belgilab olindi. Shuningdek, tarixiy maskanni So'x tumanining turizm marshrutlari ro'yxatiga kiritish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar rejasi belgilandi.

SO'Z VA AMAL BIR BO'LSA

Shu kunlarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining So'x tumaniga oid qarori mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazish hamda uning ijrosini samarali tashkil etishga bag'ishlangan tadbirlar o'tkazilmoqda.

Dastlabki yig'inda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va viloyat hokimligi mutasaddilari, hududiy boshqarma va tashkilotlar rahbarlari, tuman faollari, nuroniylar, yoshlar hamda keng jamoatchilik vakillari, poytaxtdan tashrif buyurgan taniqli san'at va ijod namoyandalari ishtirok etdi.

Yig'ilishda So'x taraqqiyotining yangi bosqichini boshlab berayotgan ushbu tarixiy qaror asosida bajarilishi zarur bo'lgan muhim vazifalar ijrosi xususida batafsil to'xtab o'tildi.

Xususan, qaror doirasida 1,5 trillion so'mlik mablag' tasarruf etilib, 162 ta investitsiya va ijtimoiy loyiha amalga oshiriladi. Shu maqsadda, 2026–2028-yillarda tumanni kompleks rivojlantirish bo'yicha aniq vazifalar belgilangan. Ayni jarayonda umumiy qiymati 80 million dollarlik investitsiya loyihalarini hayotga tatbiq etiladi, eksport hajmi 15 million dollarga yetkaziladi hamda sayyohlar sonini 1,4 barobarga oshirishga erishiladi. Tuman iqtisodiyotining muhim drayverlari bo'lgan sanoat, xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligida barqaror o'sish sur'atlari ta'minlanadi.

Davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan ushbu qarorda ko'zda tutilgan xayrli ishlarni amalga oshirishda barcha so'xliklar shunchaki kuzatuvchi emas, faol

ishtirokchi bo'lishi lozim. Yig'ilishda so'zga chiqqanlar mana shu mushtarak maqsad yo'lida barchani hamjihatlikka chorladi.

So'xliklar nomidan faollar tuman rivojiga qaratilayotgan yuksak e'tibor va g'amxo'rlik uchun Prezidentimizga



samimiy minnatdorlik izhor etdilar. San'atkorlar tomonidan ijro etilgan kuy-qo'shiqlar bayram tadbiriga ko'tarinki ruh bag'ishladi.

Tantanali tadbirlar davomida tumanda aholi farovonligini ta'minlash hamda infratuzilmani yanada rivojlantirishga qaratilgan qator yirik qurilish loyihalarini amalga oshirishga kirishildi.

Shu kuni So'x daryosi hamda Soybozor hududidan oqib o'tuvchi Obshirsoy daryosining har ikki sohil qirg'oqlarini mustahkamlash ishlari boshlandi. Mazkur loyihalarga start berilar ekan, mutasaddilar qurilish ishlarini sifatli va belgilangan muddatlarda yakunlash asosiy maqsad ekanini ta'kidladilar.

Shuningdek, aholini zamonaviy uy-joylar bilan ta'minlash maqsadida “Ravon” mahallasi hududida 12 ta 7 qavatli uy qurilishiga ham start berildi. Qurilish ishlarida zamonaviy va sifatli qurilish materiallaridan foydalanish hamda inshootlarni belgilangan talablar asosida barpo etish muhimligi ta'kidlandi.

Nuroniylar duoga qo'l ochib, boshlangan ezgu sa'y-harakatlarga oq fотиha berdilar.

Botir MADIYOROV,
Abduvosit SIDIQOV

Muslimbek TO'LANOV va
Muqimjon QODIROV olgan suratlardir.



TALQIN

2016-yil sentyabridan O'zbekistonimiz o'z taraqqiyotining yangi davriga kirganini butun dunyo ko'rib-bilib turibdi. Haqiqiy taraqqiyot yuz berishining obyektiv va subyektiv omillari bor. Subyektiv omillardan biri shuki, fuqaroga – shaxsga erkinlik berish, insonni, fuqaroni faollashtirish lozim. Toki, bugun kechagidan, ertaga bugungidan yaxshiroq, foydaliroq, eng muhimi, samaraliroq mehnat qilsin. Davlat erkinlikni Konstitutsiya va qonunlar orqali ta'minlaydi. Biroq erkinlikdan foydalanish malakasini kim shakllantiradi? Bu vazifa – butun jamiyatning ishi. Ko'proq esa huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ta'lim, madaniyat, ma'naviyat va albatta-ki, media tizimlari zimmasiga tushadi.

Hayot xuddi daryo suvi kabi hech qachon bir yerda turib qolmaydi – o'zgaruvchan. O'zgarib, bir joyda tepsinib qolsa, hamma ish orqaga ketadi. Shuning uchun Xudo insonni komillikka intiluvchi qilib yaratgan. Demak, jamiyatga ham rivojlanish xosdir. Ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha yuqori cho'qqilarga chiqib olgan mamlakatlar xalqi ham oyog'ini cho'zib, yonboshlab yotgani yo'q. Bir kun oyog'ini cho'zib yonboshlasa – ortda qoladi. Bir mamlakat xalqi rivojlanishi uchun avval unga mustamlakalar berish kerak. Ammo mustamlakadan qutulib, mustaqillikni qo'lga kiritishning o'zigina hali taraqqiyot

omili bo'la olmaydi. Axir, Ikkinchi jahon urushidan keyin mustaqilligini qo'lga kiritgan necha-necha davlatni oling, hammasi ham hamon gullab-yashnab ketgani yo'q-ku.

Avvallari "bosma axborot" ma'nosidagi "matbaa" kalimasi asosida "matbuot" yoki "jurnal" so'zidan kelib chiqib, "jurnalistika" derdik. Gazeta va jurnallar yoniga radio bilan televideniye kelib qo'shilganidan keyin "ommaviy axborot vositalari" deya boshladik. Lekin bugun ular yonidan turli internet vositalari ham joy egalladi. Shuning uchun hammasini qamrab oladigan "media" istilohini ishlatish qulayroq bo'lyapti.

Taniqli siyosatshunos olim va publitsist, tarix fanlari doktori, professor Karim Normatovning "Yangi O'zbekiston bunyodkori (Prezident Shavkat Mirziyoyevning matbuot va ommaviy axborot vositalari uchun milliy kadrlar tayyorlash bo'yicha rahnamoligi hamda yetti yillik Strategik taraqqiyotning istiqboli borasida ayrim chizgilar)" nomli siyosiy essesi (Toshkent: O'ZR Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti, 2025)-da talqin etilgan pozitsiyaga ko'ra, xalqqa berilgan erkinlik hammadan burun ana shu mediada oshkorroq va samaraliroq namoyon bo'ladi. Muallifning yozishicha, "2016-yildan

boshlab o'zbek matbuotida erkinlik, ochiqlik va shaffoflik siyosati ustuvorlik kasb etmoqda". Chunki, "Shavkat Mirziyoyev millatga milliy tafakkurni qaytardi. Millatga fikrlash, o'ylash, erkin so'z aytish tuyg'ularini qaytarib berdi". Kitobda ana shu masalani har taraflama asoslab, fakt va dalillar bilan isbotlab ko'rsatishga harakat qilingan.

Aytish mumkinki, siyosiy esse muallifi asar oldiga qo'yilgan katta vazifani kifitini keltirib uddalagan. Kitob O'zbekiston Prezidentining Matbuot va ommaviy axborot vositalari kuni munosabati bilan yo'llagan bayram tabriklaridan parchalar bilan ochiladi. Muhimi, bu iqtiboslarda ham jiddiy, eng asosiysi, yangi pozitsiya bo'rtib turadi. Bu jurnalistikani xavfsizlik va Vatan mudofaasiga tenglashtirishda namoyon bo'ladi: "Bugungi kunda matbuot ishi, jurnalistlar faoliyati nafaqat "to'rtinchi hokimiyat", balki mudofaa, xavfsizlik kabi hal qiluvchi sohaga aylanib bormoqda", "Bepoyon media olamda xolis va haqqoniy axborot tarqatish bilan birga, milliy manfaatlarimizni qat'iy himoya qiladigan jurnalist ahlining mashaqqatli mehnatini muqaddas sarhadlarimizda sergak turgan Vatan posbonlarining jasoratiga qiyoslasak, o'ylaymanki, o'rinli bo'ladi".

Bu vazifa media olam vakillari zimmasidagi jiddiy mas'uliyat ekanini

hammamiz yaxshi tushunamiz. Ehtimol, jurnalistika gardaniga ilgari hech qachon bu qadar ulkan vazifa yuklanmagan bo'lsa kerak. Kitobda O'zbekistonning hozirgi davrida jamiyatga yangi g'oya, tashabbus va natijalar zarurligi, Davlatimiz rahbari bu ulkan uyg'onishning boshida turgani, xalqni – hammani shunga undayotgani, shuning uchun Prezidentning konstitutsiyaviy maqomi butun o'z mohiyati bilan davlat va millat ramziga aylangani, davlatning butun mahobati, o'tmishi-yu istiqboli yaxlitligicha, butun salobati bilan yo'lbo'shchi qiyofasida namoyon bo'layotgani samimiy tarzda ifodalangan.

Kitob "Muqaddima" va "Xulosa o'rni-da" degan qismlar "Haq so'z qudrati har qanday atomdan kuchli, ta'sirli" hamda "Jurnalist – Vatan himoyachisi, umrini bunyodkorlik ishiga bag'ishlaydi" deb nomlangan ikki bobdan tashkil topgan. Kitobda yangi davrda jurnalist kadrlar tayyorlash borasidagi katta o'zgarishlar batafsil yoritilgan. Xususan, bu borada O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetining tashkil etilishi, uning tez fursatlarda o'z mavqeyiga ega bo'lgani yaxshi tahlil qilingan.

Bugun medianing vazifasi xalq ong-u tafakkurini shakllantirishdek muqaddas

ishga munosib hissa qo'shishdangina iborat emas. Axborot asrida u jahon media makonida O'zbekiston imijini yaratishi ham kerak. Muallif bu masalani ham tahlil etib, sohani takomillashtirish bo'yicha o'rinli va asosli takliflarini ilgari suradi. Shuningdek, mavzuga daxldor "media makon", "imij", "milliy axborot segmenti", "mega infotur", "blogger" kabi nisbatan yangi tushunchalarga izohlar keltiradi.

Yutuqlar bilan birga, sohaning yanada ravnaq topishi uchun to'siq bo'layotgan muammolar ham ko'rsatilib, ularning yechimlari bo'yicha takliflar berilishi kitobning yana bir yutug'idir. Asarda yozilishicha: "Gazetalarni boy berishning oqibatlati qo'rqinchlidir. Ammo biz boy beryapmiz. ...Sir emas, bugun matbuot nashrlari, xususan, aksariyat bosma nashrlar taqdiri, ahvoli ko'ngildagidek emas. Ming mashaqqat bilan chop etilayotgan nashrlar juda tor doirada odamlarga yetib bormoqda. Ma'naviyat sarchashmalari bo'lgan gazeta va jurnallardan odamlar kun sayin uzoqlashyapti". Muallif bunda internetni asosiy sabab qilib ko'rsatish fikriga qo'shilmaydi. Chunki "internet tarmoqlari keng rivoj topgan qator ilg'or mamlakatlarda ham bugun 100 minglab nusxada gazeta va jurnallar chop etilmoqda".

Bugun O'zbekistonda kitobxonlikka da'vat siyosati olib borilyapti. Kitob muallifining qat'iy ishonchiga ko'ra, "kitobsevarlik aynan gazeta o'qishdan boshlanadi". Olim milliy matbuotning Uchinchi Renessans poydevorini qurishdagi o'rni va ahamiyatidan kelib chiqib, sohani yanada rivojlantirish bilan bog'liq 6 banddan iborat muhim taklif va mulohazalarini bayon etadi.

Hamma vaqt yangi davr tarixini bitish murakkab kechadi. Chunki jarayon to'xtagani yo'q. Shunga qaramay, "Yangi O'zbekiston bunyodkori" kitobida yangi davrdagi media tarixi, yurtimizda olib borilayotgan media siyosatning tub mohiyati aniq fakt va dalillar asosida teran ochib beriladi.

Bir-birimizni o'qiylik! Kitobning mag'zi-mag'ziga zimdan ana shu tirik g'oya izchil singdirilgan. Axir, zamon o'zgarib, gazeta-jurnal o'qimaydigan bir avlod yuzaga keldi. Hamma yengil-yelpi, oldi-qochdi, shov-shuvli, qisqa-qisqa, tezkor axborotga tayanib qolgandek. Muallif gazeta o'qimay turib: "Gazetalarda hech narsa yo'q", deb yozg'iradiganlarni qoralaydi va ko'plab kasbdoshlarimizning mavzuga aloqador fikrlaridan namunalar keltiradi. Kitob mutolaasidan so'ng, beixtiyor, gazeta-jurnal izlab qolasan kishi.

Sultonmurod OLIM,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan
madaniyat xodimi



QARDOSHLIK

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev amaliy tashrif bilan mamlakatimizga kelgan Ozarbayjon Respublikasi iqtisodiyot vaziri Mikoyil Jabborovni qabul qilarkan, yuqori martabali mehmon Davlatimiz rahbariga Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyevning samimiy salomi va ezu tilaklarini yetkazdi. Uchrashuvda O'zbekiston – Ozarbayjon strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini, avvalo, savdo-iqtisodiy sohada yanada rivojlantirishning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi. Bu yaqin o'nkunliklar ichida, bilmadim, nechanchi bordi-keldi, katta-kichik muzokaralar bo'lsa...

Muhtaram Prezidentimiz dunyo darvozasini keng ochgan ilk pallalardan xalqimizga yaqin oshno, yelkadosh va hamkor bo'lgan davlatlardan biri, shubhasiz, Ozarbayjon Respublikasidir. Albatta, bu borada tilimiz va dinimiz, tariximiz va adabiyotimiz, maqsad va muddaolarimiz musharak ekanini ta'kidlash o'rinli.

Ammo har ikki tomon fuqarolarining yakdil fikriga ko'ra, bu samimiy qardoshlik aloqalarida har ikki davlat rahbarining, ayniqsa, Shavkat Mirziyoyevning siyosiy irodasi va uzoqni ko'ra bilgan qat'iy pozitsiyasi bosh mavqega ega.

Buyuk shoirimiz Abdulla Oripov bir she'rida "Agar jannat qo'riqchisining qovog'i uyuy bo'lsa, ichkariga oyoq tortmaydi", deb yozgandi. Biz doim Ozarbayjon deganda chehrasi ochiq, mehmondo'st va xayrixoh jannatmonand yurt egalarini ko'z oldimizga keltirib, quvonch-u sog'inch bilan muborak diydorlarga oshiqamiz.

SAFAR QILING...

Shu kunlarda kamina ilk bor xorij safariga chiqdim. Ko'zlagan manzilim qardosh Ozarbayjon poytaxti Boku shahri bo'ldi. Sayohatsevar yurtdoshlarimiz ko'pincha Yevropa va boshqa qit'alaridagi shaharlarga oshiqadi. Ammo turkiy davlatlar bag'rida ham shunday manzillar borki, bir ko'rimgan odam armonda qoladi. Demak, bu safar Bokudan yozaman.

"Safar qiling, salomat bo'lasiz", deyiladi hadisda. Bokuning tanlanishi ham bejiz emas. Qardosh Ozarbayjon keyingi yillarda Markaziy Osiyo mamlakatlari, jumladan, jonajon O'zbekistonimiz uchun ham tobora ishonchli hamkor, strategik sherik va ittifoqdosh davlatga aylanib bormoqda. Qolaversa, bu o'lkada yashovchi xalqning betakror adabiyoti, madaniyati va san'ati, boy o'tmishi hamisha bizni qiziqitirib kelgan. Bundan tashqari, o'lkamizga eng yaqin va Orolimizga egiz bo'lgan Xazar dengizining qirg'og'idagi shahar ziyorati manfaatli bo'lishi tayin edi. Shunday bo'ldi ham.

Ilk daf'a samolyotda uchish Xazar dengizining qoq markazini temir qushda kesib o'tganimiz bilan yodda qoldi. Ozarbayjon tuprog'iga qadam qo'ygach, Haydar Aliyev aeroportidan chiqib Bokudagi "Icheri shahar" obidasiga no'ladim.

Birinchii kun adog'iga yetib, oqshom cho'ka boshlaganida, yuz yilliklar kechmishiga guvohlik berib kelayotgan tarixiy qal'a ichidan chiqib, dengiz qirg'oqlari tomon odimlayotgan edim.

Xazar qirg'og'ida "Boku ko'zi" deb nomlangan yer usti charxpalagi mavjud. Mana shu charx-



palakning avj nuqtasida kechki Boku manzaralarini bir qadar yuqoridan tomosha qilish zavqi yurakdan o'tar ekan, uncha uzoq bo'lmagan joyda Davlat bayrog'i maydonida eng baland flagshtok sifatida Ginnes rekordlar kitobiga kiritilgan Ozarbayjon bayrog'i mag'rur hilpiradi. "Boku ko'zi"dan tushgach, qadamlar ham o'z-o'zidan shu tomon boshladi.

TARIXIY XOTIRASI UYG'OQ XALQ

Agar biror odamdan kimligini so'rasangiz, shaxsini tasdiqlovchi hujjat – pasportini ko'rsatishi tabiiy. Agarki, bu savol biror millatga nisbatan yo'llansa, ular ulug' shoir, yozuvchi, olim va boshqa milliy qahramonlarini ko'rsatadi.

Bokuda millat ziyolilarining yuksak maqomda hurmat qilinishiga shohid bo'ldim. Har uch ko'chaning birida shoir yo yozuvchining nomi bilan ataluvchi xiyobonga duch kelasiz. Shaharning g'arbiy qismidagi qariyb 100-130 yillik qadimiy binolarning har biri madaniy meros obyekti sifatida davlat muhofazasiga olingan. Eshiklar tepasiga yodgorlik lavhlari o'rnatilib, bu uylarda qaysi yillarda qaysi adib yo olim, san'atkor va davlat arbobi yashaganini qayd etilgan.

Ozarbayjon xalqining ana shunday ardoqli farzandlaridan biri Bulbuldir. Bulbul uy-muzeyini tomosha qilar ekanman, Shushada 1897-yilda tug'ilgan bu ulug' san'atkorning serqirra ijodiy faoliyatiga tasannolar aytdim. Bu zahmatkash zot ham aktyor, ham xonanda, ham sozanda, ham musiqashunos sifatida ozarbayjon milliy zamonaviy san'atiga asos solgan ekan.

Muzeyda menga iftixor bag'ishlagan bir necha eksponat haqida to'xtalmasam bo'lmaydi. Bularning biri kompozitor Sulaymon Yudakovning akademik shoirimiz G'afur G'ulom so'zi asosida tayyorlagan "Mirzacho'" vokal-simfonik suytasi va Muxtor Ashrafyning "G'unchayi xandonimdan" romansi edi. Ikki xalq do'stligi o'tgan asrda ham bardavom bo'lganining yana bir ifodasi edi bular.

Ozarbayjon davlat akademik milliy drama teatriga borish ham yoddan ko'tarilmadi. Axir, birinchi professional o'zbek aktrisasi Ma'suma Qoriyeva Bokudan kelgan teatr truppassi ijrosidagi "Layli va Majnun" spektaklini tomosha qilib, san'atga bo'lgan ishtiyoq va havasini o'stirgan edi-da. Teatr repertuarida Parviz Sayidlining Amir Temurga bag'ishlangan tarixiy-psixologik dramasi ham bor ekan. Afsus, teatrdan mavsum yakunlanib, ijodiy jamoa ta'tilga chiqqani uchun spektakl tomoshasidan hozircha benasib qoldim.

Teatr hovlisida Muhammad Fuzuliy haykali o'rnatilgan. Uning poyida qahramon shoirimiz Erkin Vohidov she'rini o'qidim:

Yellar, bir daqiqa to'xtang esishdan,

Sernavo bulbullar, sayramang biroz.

Karbala dashtida yavov kezishdan

Charchab tin olmoqda Fuzuliy ustoz.

Dengiz, to'liqlarining uzma qirg'oqqa,

Shoir o'ylariga bermag'il xalal.

Ustoz yuragida she'r tug'ilmoqda –

Dunyoga kelmoqda yangi bir g'azal.

Peshtogi va devorlariga yodgorlik lavhlari o'rnatilgan binolar oralab yana Xazar dengizi tomon yurar ekanman, ozarbayjon adabiyotining yirik namoyandasi Nizomiy Ganjaviy xiyobonidan chiqdim. Beixtiyor, Nizomiy haykali qaragan tomonga yuzlanaman: Ozarbayjon Milliy adabiyot muzeyi.

Bizning nainki ozarbayjon, balki butun turkiy dunyo adabiyoti bilan yaqindan tanish bo'lishimiz O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ezu tashabbusi va oqilona sa'y-harakatlari hosilasidir. Bundan yetti yil avval ayni shu shaharda Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida Davlatimiz rahbari tomonidan tashkilotga a'zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat "Turkiy adabiyot durdonalari" nomli 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatda ona tilida nashr etish g'oyasi ilgari surilgan edi. Mazkur ezu tashabbus asosida birinchi bo'lib O'zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi va bu keng ko'laml, zalvorli badiiy silsila yurtimizdagi har bir kutubxona va ta'lim muassasasiga yetkazildi. Bokudagi adabiyot muzeyi va undagi eksponatlar bilan tanishish davomida "Turkiy adabiyot durdonalari" turkumidan olgan ma'lumotlar juda qo'l keldi va xayrli ishning boshida turganlardan behad minnatdor bo'ldim.

Keyingi manzil sari yurar ekanman, diqqatimni tortayotgan matbuot shoxobchalaridan birida to'xtab, qardosh davlat nashrlari bilan qiziqdim. "Ozarbayjon", "Xalq gazetasi", "Yangi Ozarbayjon", "Turkiston" kabi ijtimoiy-siyosiy gazetalar va "Ozarbayjon", "Yulduz" kabi adabiy-badiiy jurnallardan xarid qildim.

Bokuda uchta tabarruk qadamjo bor – Shahidlar xiyoboni, Faxriy xiyobon va Ikkinchi Faxriy xiyobon. Shahidlar xiyobonida yurt ozodligi, chegaralar daxlsizligi uchun jonini fido qilgan va mustamlakachilik siyosatining qurboni bo'lgan qardoshlar nomi yod etiladi. Faxriy xiyobonda ozarbayjon xalqining ardoqli farzandlari mangu qo'nim topgan. Haydar Aliyev, Nasiba Zeynalova, Bulbul, Samad Vurg'un, Muslim Magomayev, Voqif Samad o'g'li kabi millat fidoyilari qabrini ziyorat qildim.

Gai Ganira Pashayevaga kelgandi. 2023-yilda dardi ulkan shoir, jamoat arbobi, turkiy xalqlarning

qadrdon do'sti, "Ozarbayjon marvaridi" deya e'zoz topgan Ganira xonim Pashayeva vafot etdi. Uning vafotidan o'n yil oldin – 2013-yilda yozgan vasiyatini o'qing. O'shanda bor-yo'g'i 38 yoshda edi.

"Medicina" nashrining xabar berishicha, agar shoirada biologik o'lim holati kuzatilsa va uning a'zolari kimgadir foydali bo'lsa, u organ donorligi uchun murojaat qilgan va a'zolarini muhtoj bemorlarga topshirishni vasiyat qilgan edi. Adiba bu haqda shaxsan ma'lum qilgan va bu uning dunyoga beradigan so'nggi foydasi bo'lishi mumkinligini aytgan.

Ikkinchi Faxriy xiyobonda yana bir necha yurt fidoyilarini ziyorat qilib, Boku ufqiga botayotgan quyoshni kuzatdim.

Xalq o'z farzandlarining tabarruk nomi va pok siymosini bu shaklda yod etish orqali o'zligini asrlardan opichlab olib o'tib, bus-butun saqlab kelayotgan bo'lsa, ajab emas.

TINCHLIK QO'SHIG'I

Bokuning sersoya ko'chalarining birida ketarkanman, yo'l chetida, devorga suyanib turgan kishi "O'zbek" deya chaqirdi. Izimga qaytib, salomlashdim. Qalpog'i ostidan ko'ziga soya tashlayotgan mosh-guruch tusli o'sik sochlarini qadoq qo'li bilan tarar ekan, uniqqan kamzuli yengini shimardi. So'l qo'li bilan devorga tayanib, o'ng qo'lidagi hassasini tiklab oldi.

– O'zbeksan-a? Do'ppingdan tanidim. Bokuga xush kelibsan! Men O'zbekistonda bo'lganman. Toshkentda va Samarqandda. Harbiy xizmatga borganimda ko'rgandim. O'zbekcha oshni sog'inganman. "Lazgi" eshitib, raqs tushganman: "So'yla mag'an, ey sanam, kimni sevar yorisan?" Juda zo'r ashula.

O'zini Ozar deya tanishtirgan bu kishi so'zlar ekan, muvozanatni yo'qotishiga bir bahya qolar, ammo tag'in qaddini o'nglab olar, duduqlanishi va salomatligidagi nuqsonlardan xijolat tortishi bilan birga, O'zbekistonga bo'lgan sog'inch tuyg'usi ham shundoq sezilib turardi.

Ozar og'a o'zi izoh berdi: – Menga e'tibor berma, Qorabog'dan qolgan yodgorlik. Jangda kontuziya olganman...

Mehmonxonaga qaytgach, hofizlarning komili bo'lmish Komiljon Otaniyozov ijrosida "Lazgi"ni qayta tingladim. Bu safar "Lazgi" o'ynoqi ohang emas, do'stlik qo'shig'i bo'lib yangragandek bo'ldi quloqlarim ostida.

Kaminani shu kabi yo'lda to'xtatganlar oz emasdi. Barchasi samimiy munosabatda bo'lardi. Icheri shaharda ko'cha konsertini namoyish etayotgan yosh ijrochilar guruhi iltimosimga yo'q demay, "Sari gelin"ni chalib berdilar; qahvaxonada ozarbayjon odatiga

ko'ra choy ichish tadorigini ko'rayotganimda, qo'shni stoldagi ayollar pahlava bilan mehmon qildi; Ozarbayjon Yozarlari birligi matbuot xizmati rahbari, shoir Xayol Rizo xonasida Nizomiy Ganjaviy bilan bir qatorda Alisher Navoiyning ham suratini ko'rib, qaddim g'oz bo'ldi; Ozarbayjon Milliy kutubxonasida nodir adabiyotlar bo'limi mudirasi Said xonim Navoiy bobomiz haqida to'liqlanib gapirib, buyuk o'zbek shoirining noyob asarlari qo'lyozmalari nusxalarini, shohona nashr etilgan Mirzo Ulug'bekning "Zij" va "O'zbekiston madaniy yodgorliklari" to'plamlarini maqtanib, iftixor bilan ko'rsatdi; Nizomiy maydoni yaqinidagi avtoturargohda kirakash yigiti Yulduz Usmonova qo'shiqlarini seviz tinglashini bildirdi...

BARHAYOT NAVOIY

Bokudagi shoh ko'chalardan biri "Ozodlik" deb ataladi va bu ko'chadagi mo'jaz bog'da buyuk o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiyning haykali qad rostlab turibdi.

Bobomizning butun insoniyatga vasiyat o'laroq yozilgan ruboiysi bor:

Kamol et kasbkim, olam uyidin

Sanga farz o'lmag'ay g'ammok chiqmoq.

Jahondin notamom o'tmak biaynih

Erur hammomdin nopok chiqmoq.

Shu ma'noda, Ozarbayjon poytaxtiga kelib, Navoiy haykalini ziyorat qilmaslik, mazkur ruboiyning to'rtinchi satridagi ish bilan barobar bo'lardi nazarimda.

BAG'RI BUTUN BOKU

Aeroport bekatiqacha metroda borsangiz, ma'qul. Metro bekatiqadagi nazorat postidan o'tib, plastik karta orqali to'lovni amalga oshirish jarayoniga kelgan edim hamki, texnik nosozlik yuzaga keldi. Navbat hosil qilmaslik va vaziyatga oydinlik kiritish niyatida bir chetga o'tayotsam, qosh-u kiprigi qora, ko'zlari Xazarning qadimiy suvidek moviy ayol meni chorladi. Yo'q, bu metropoliten xodimi emasdi, oddiy yo'lovchilarning biri edi. Qo'ldagi kartasini ko'rsatib, metroga kirishga imo qildi. Qardosh jondosh-da...

Qalbdan ona Vatan sog'inchi, ammo yana Boku ziyorati istagi bilan aeroportga yetib keldim. O'rta esa Samad Vurg'un she'ri yangrab qolgandek edi:

Xayolimda saflanadi yangi satrlar,

Qalam tinmas, asta-sekin qog'oz to'ladi.

Saf-saf o'tar baxt yaratgan

mdrlar, botirlar,

Butun Boku yuragimda bir she'r bo'ladi.



Otabek ISROILOV

Toshkent – Boku – Toshkent.



FAXR

SAMODAGI O‘ZBEKLAR



Xalqaro astronomiya jamiyatining Kichik jismlar bo'yicha qo'mitasi (WGSSN) tomonidan e'lon qilingan rasmiy bayonotda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Astronomiya instituti olimlari – Kamoliddin Ergashev va Otabek Burhonov nomlari ikki kichik sayyora (asteroid)ga berilgani ma'lum qilindi. Endilikda xalqaro astronomik kataloglarda ushbu osmon jismlari (131358) Kamolergashev va (121339) Otabekburxonov nomlari bilan qayd etiladi.

Ikki olimning faoliyati bilan yaqindan tanishish maqsadida ularning hikoyalari quloq tutdik.

OTABEK BURHONOV HIKOYASI

Bu xabarni hamkasb do'stimiz Kamoliddin noodatdiy shaklda yetkazdi. Shoshib qoldim. Ko'zimga ishonmadim. Keyin Yevropadagi hamkorlarimizdan tabriklar kela boshladi. Bunaqa paytlarda yo xursandlikdan bosh aylanadi, yo ishonchsizlikdan miya karaxt bo'ladi. Menda ikkinchisi bo'ldi. Kamtarona xizmatimizga, o'z vazifamizni bajarganimizga shunchalik e'tiborni, deb hayron bo'ldim-da.

Ilm kishilari ham ijodkorlar kabi mehnatiga yarasha e'tibor kutishi bor gap. Bu, albatta, moddiy rag'bat yoki mukofot bo'lishi shart emas. Masalan, xalqaro darajadagi jurnallarga maqola yuboramiz. Har bir ilmiy maqola bu bir yangilik, fan olamida yangi qadam. Agar tahririyatdan "Ishingizni nashrga beryapmiz" degan xabar kelsa, juda xursand bo'laman. Chunki maqola yuzasidan taqrizlar, tanqidiy-tahliliy munosabatlar keladi. Ba'zan tahririyat bilan ishlashga to'g'ri keladi maqola ustida. Shu jarayonning o'zi e'lon qilinishdan ham qiziqarli va foydali. Shunda xato va kamchiliklarimizni ko'ramiz, e'tibordan ko'nglimiz ko'tariladi.

Ilmiy maqolalarda sonning orqasidan quvib, sifatini tushirib yubormaslik kerak. Chunki jahon ilm ahli O'zbekistondagi ilmiy saaviyani ana shu detallarga qarab tasavvur qiladi. Bu yerda endi shaxsiy xudbinlikni yengib o'tish, o'z manfaatini ilm-fan va milliy manfaat bilan uyg'unlashtirish kerak.

Bitta yutuqqa erishguncha qancha tanqidlarga duch kelamiz. Men tanqidni qo'rqadigan odam emasman, aksincha, tanqidi to'g'ri qabul qilaman. Inson qachon tanqid qilinmaydi? Qachonki, oxirat yo'lga kuzatilayotgan bo'lsa. Qolgan hamma holatda tanqidga tayyor turish kerak. Ammo umrni shu negativlarga javob berish uchun sovurib yuborish ham aqldan emas. Faqat sog'lom tanqidga e'tibor qaratib, qolganini orqaga tashlagan odam yutadi.

Bugun osmondan mening ism-nasabim bilan asteroid kezib yurgani faqat o'zining xizmatim emas, albatta. Bu yerda jamoa mehnati yotibdi. Men rahbarman deb, o'zimmikini o'tkazib o'rganmaganman. Olimlarga salohiyatiga qarab ish taqsimlaganimiz. Har biriga o'z yo'nalishida erkinlikni ta'minlaganimiz, mana, hammasi yaxshi ketayapti. Vazifani bergandan keyin qayshi yo'lni tanlashni o'zlariga qo'yib beraman. Jamoamizdagilar o'z sohasining eng zo'rlari, nazarimda. Chunki har biri aniq bir sohaga ixtisoslashgan, uning ikir-chikirigacha yaxshi biladi.

Ba'zan yosh kadrlarning betoqatligiga hayron qolaman: universitetni tamomlagan zahoti yuqori maosh va baland mansabga oshiqadi. "Avval mehnatningni ko'rsat", desangiz yoqtirmaydi. Astronomiya institutiga kelganimga chorak asrdan oshibdi. Ishni boshlagan paytda biz ilmiy daraja yo martaba haqida emas, tan olish kerak, talabga javob beradigan kompyuter, kerakli dasturiy ta'minot haqida bosh qotirardik. Hech narsamiz yo'q hisobi edi.

Yo'l boshida turganlarni ruhlantirish o'rniqa: "Senlar kuzatgancha kuzataveringlar. Hozir paxtani terish kerak, senlaram teringlar. Qolganini o'zimiz hal qilib olamiz", deyishardi. Shundan yuragim og'rgan.

Qo'pol qilib aytganda, qo'g'irchog'ingni o'ynab turaver, kerak bo'lganingda o'zimiz chaqirib olamiz, degan-da.

Shu ekan tizim, deb o'tiravermayman-ku. Shu paytda kuzatuv ma'lumotlarini qayta ishlashni o'rgandim, amaliyotda qo'llashni boshlagan paytimda Kamoliddin Ergashev kelib qoldi. Birgalikda muammolarni o'rganib, asteroidlarning bitta parametrini aniqlaydigan dastur ham yozdik. Shu bo'yicha ilk maqolamiz o'shanda chiqdi. Bu endi, 2000-yillardagi gap.

Ilgari Qashqadaryo viloyatida joylashgan Maydanak observatoriyasiga yetish chet elga borib-kelish bilan barobar edi. Keta-ketguncha nazorat postlari, yo'llarning ahvoli tinkangizni quritasa, xizmat safariga ajratilgan mablag'ning ozligidan jigaringiz ezilardi. Deyarli hamma xarajat yonimizdan

“**Mustaqil O'zbekiston tarixida ilk bor kosmik sohada sun'iy yo'ldosh va mamlakatimiz fuqarosi bo'lgan birinchi o'zbek kosmonavtini fazoga uchirish bo'yicha ishlarni boshladik. Bu Yangi O'zbekistonning ilmiy va texnologik rivojlanishiga, umuman, milliy taraqqiyotimizni yangi bosqichga olib chiqishga katta turtki beradi, deb ishonaman.**

**Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti**

edi. Bir amallab yetib olgandan keyin, 2600 metr balandlikdagi observatoriya qurilishining o'zi yana bir muammo, deng. Hammaning ham sog'lig'i ko'taravermaydi. Tapada hatto birinchi tez yordam ko'rsatish uchun ham tibbiy anjomlar topilmasdi. Buning uchun kamida sakkiz kilometr yo'l bosib, qishloqqa borib kelasiz. Ana shu kunlarni ham boshimizdan o'tkazib, ikkimiz almashib-almashib ishladik. U yoqda hattoki kuzatuvchilarimiz ham yo'q edi. Qolaversa, ma'lumot yetishmasligi, tanqisligi...

Eng alamlisi: ba'zi yangiliklarni birinchi biz kuzatamiz, biroq sharoit yo'qligi uchun tahlil qilib tayyorlagunimizcha, boshqa davlatdagi olimlar maqola yozib, e'lon qiladi. O'sha paytda bizni katta-katta loyihalarga taklif qilishni boshlashdi. Afsuski, qo'l kaltalik yana oyoqdan chalardi. Biz Quyosh tizimidagi kichik jismlarning tadqiqoti bilan shug'ullanishni boshlaganimizda, bu tor sohada mutaxasssilar yetarli emasdi va deyarli noldan boshlashimizga to'g'ri kelgan. Shu bosqichlardan o'tdik. Endi, hozirgi sharoitga qarang!

"Astronomiya instituti nimaga kerak? Yulduzlar, qora tuynuklar, asteroidlar nima qilib beradi odamlarga?" – degan savollar eshitilib qoladi ba'zan. Birinchidan, bu tuproqda Mirzo Ulug'bek o'tgan. Fazo ilmini o'rganishning lokomotivi biz bo'lishimiz kerak, aslida. Respublikamizda astronomiyaga ixtisoslashgan tadqiqot instituti borligining o'zi ajdodimizga munosib vorislik belgisi hamdir. Ikkinchisi, na millat, na davlat tanlamaydigan xavf bu – samoviy xavfdir. 65 million yil avval Yerga asteroid to'qnashgan, dinozavrlar yo'qolib ketgan, degan gap og'zning bir chetidan chiqib ketadi. O'sha voqea qaytarilmasligiga kim kafolat beradi? Sayyoralaridagi o'zgarishlar, asteroid, kometalar harakatini kuzatish orqali zamin xavfsizligi uchun loyihalar ishlab chiqiladi. Koinotdan turib Yerni o'rganish ham shu sohaning ichiga kiradi. Kosmik tasvirlar orqali Yerimizdagi o'zgarishlarni ham kuzatamiz. Barcha

rivojlangan davlatlar astronomiya sohasiga diqqatini qaratadi.

Xulosa shuki, halol mehnat qilgan inson halol nonini yeydi. Bir joyda to'xtab qolgan kuyadi. "Olma pish, og'zimga tush" degan bilan ish bitmaydi.

Yoshlarga ikki og'iz dil so'zim. Orzu qilishdan, marrani katta olishdan cho'chish-masin. Yaqingacha ham "Kosmonavt bo'laman!" degan orzumandning ustidan kulib qo'yishardi. Yil boshida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev kosmosga sun'iy yo'ldosh uchirish hamda birinchi o'zbek fazogirini tayyorlash bo'yicha dastlabki ishlar taqdimoti bilan tanishdi. Ta'kidlanganidek, bugun dunyoda raqobat yangi bosqichga chiqib, iqtisodiy qudrat tabiiy boyliklar bilan emas, intellektual salohiyat va texnologiyalar bilan o'channmoqda. Kosmik texnologiyalar esa strategik ahamiyatga ega yo'nalishlardan biriga aylandi.

Demak, bu soha ham umidli sohalardan. Hamma fazogir bo'lishi shart emas, bunga ehtiyoj ham yo'q. Lekin astronomiya ilmining yetuk mutaxassislari, uchuvchilar, aviasozlarga ehtiyoj butun dunyoda ortib bormoqda. Shuning uchun, orzuni maqsadga aylantirib, bu yo'lda mehnat qilaverish kerak. Yangi O'zbekistonda hech kim umidsiz, qo'llab-quvvatlovsiz va norizo qolib ketmaydi. Men bunga ishonaman.

KAMOLIDDIN ERGASHEV HIKOYASI

Birinchi xabar kelganda, Otabek akaga bor gapni aytmadim. "Kuzatuvga bitta obyekt bor, shuni bir ko'ring, kuzatamiz bugun", dedim. NASAning bazasidagi raqamini tering, deb aytib turdim. Ochdilar-u, nomiga qaramayaptilar-da. To'g'ridan to'g'ri asteroid parametrlariga qarab, ishning hajmini chamalashga o'tib ketdi. Toqatim yetmay, "Aka, nomiga bir qarang", desam, qaytadan o'qib, hayratdan shoshib qoldi.

O'zim esa chexiyalik hamkorimizdan kelgan elektron xat orqali xabardor bo'ldim. Ochsam, yangi nom berilgan asteroidlar ro'yxati ekan – Qo'mitaning oxirgi chiqargan byulleteni. Ismimni ko'rib qoldim o'sha yerda. Hech kinga yorilmadim, sabr qilib ertalab ishga keldim. Otabek akani kutib turdim. Xullas, bir-birimizni tabriklab, ustozlarimiz bilan bo'lishdik. Bu yutuqda ustoz maqomidagi Otabek Burhonovning xizmatlari beqiyos. Shuning uchun avval u kishiga ilingim keldi xushxabarni.

Ko'plarning nazarida "Sizlarga qaysi karomat uchun bu mukofot berildi?" – degan savolni uqasiz. Javob berishga harakat qilaman.

Bir necha yillardan beri Astronomiya institutida, Maydanak observatoriyasida Quyosh tizimining kichik jismlari, ya'ni asteroidlarni o'rganib kelamiz. Bugungi kunda 1,5 millionga yaqin asteroid bo'lsa, shulardan 40 mingdan ortiqrog'ining orbitasi Yerga yaqinlashuvchi hisoblanadi. Ko'sh, Yerning atrofiga 40 mingga asteroid qayerdan kelib qoldi? Keyingi tadqiqotlar ko'rsatdi: Quyosh o'z nurlari bilan asteroid yuzasini shunday notekis qizdiradiki, natijada o'sha bosh belbog'da, ya'ni Marsdan keyin joylashgan asteroid Quyoshga qarab yurib, o'z orbitasini o'zgartirib, Yerga yaqin sohaga o'tib qolishi mumkin ekan. Bu Yarkovskiy effekti deyiladi. Shu effekt asteroidlarni bugungi kunda o'rganishning asosiy motivlaridan biri hisoblanadi.

Biz ham Maydanak observatoriyasidagi tadqiqotlarda aynan mana shu aylanish, aylanish-parchalanish va genetik bog'langan juftliklar, parchalanib ketgandan keyin genetik bog'langan juftliklarni o'rganishga o'z hissamizni qo'shib kelyapmiz. Bu yo'nalishda, ayniqsa, chexiyalik hamkorlarimiz bilan juda ko'p ishlar qildik. Oxirgi uch yilning o'zida 11 ta asteroidning yo'ldoshi borligi, bundan tashqari, bitta asteroid uchtalik jism, ya'ni u uchga parchalangani, yana bitta asteroid esa to'rttalik jismdan iborat o'ziga xos klaster ekanini aniqladik. Aytish mumkinki, uch

yilning ichida 11 ta jismning yo'ldoshlari borligi va qachonlardir ular bitta bo'lib, keyin parchalanganini aniqlashning o'zi mana shu aylanish-parchalanish yo'nalishida muhim natija hisoblanadi va chech astronomlarning natijalari bilan birlashtirilganda, katta natijalarni beradi. O'ylaymanki, Xalqaro astronomiya jamiyati mana shu natijalar tufayli ikki asteroidga bizning nomimizni berishga qaror qildi.

Yaqinda bir hodisa bo'ldi. Bitta obyektning parametrini olishimiz kerak edi. Xalqaro maydonda mana shuni kuzatishimiz kerak, degan qaror bo'ldi va kuzatishni boshladik. Davri katta, puxta kuzatish zarur edi. Birinchi kuni osmon bulutli bo'ldi. Ikkinchi kuni obyekt Oyning orqasiga o'tib ketdi. Uchinchi kuni kuzatdik. To'rtinchi kuni kuzatamiz desak, geografik kengligimizga mos emas, u bizdan uzoqlashib ketdi. Keyin yaqinlashganida kuzatamiz, dedik. Mayli, biz olgan o'sha bir kunlik natijadan keyingi avlod foydalanishi mumkindir. Lekin hisoblab ko'rsam, u obyekt keyingi safar 2047-yilda Yerga yaqin kelar ekan. O'ylab qarasa, unda Otabek aka 70 ga, men 60 ga kirar ekanmiz. Ishimizning mana shunday nozik tomonlari ham bor.

Ilm-fan davlat va jamiyat hayotini birdan o'zgartirib yubormaydi. Uning mevalari yillar, balki o'n yillar o'tib sezila boshlaydi. Amir Temur boshlagan ma'rifatparvar siyosat Mirzo Ulug'bek "Zij"ida, Alisher Navoiy "Xamsa"sida aksini topgani ham shundan.

Yosh uka-singillarimizga yo'l boshida aytib qo'yishim kerak: olimning moddiy farovonlikka erishishi vaqt talab qiladi. Agar sizning maqsadingiz pul topish bo'lsa, ilm yo'lga kirmang. Ilm – osun boylik ilinjidagi odamlarning ishi emas.

Bu gaplar bilan yoshlarni cho'chitmoqchi emasman: so'nggi o'n yillikda o'zbekistonlik olimlarning yelkasiga quyosh, ko'ksiga shabada tekkani rost. Maoshlar ko'tarildi, moddiy rag'batlar oshirildi, qator imtiyozlar taqdim etildi. Endi olim uy-ro'zg'or, turmush tarzida moliyaviy qiyinchilik ko'rmay yashashi mumkin. Lekin "Sen ilmga boringni bermaguningcha, ilm senga o'zining bir bo'lagini ham bermaydi", degan hikmat bor. Olim nima berishi mumkin: avvalo, umrni, yoshligini, mashaqqatli kunduzlar, bedor kechalar, fidoyilikni. Ana shunda ilm ham shunday ne'matlar beradiki, buni tasavvur ham qilolmaysiz.

Mana, samoda ismimiz bitilgan jism uchib yuribdi. "Armoningiz qolmadi", dedi bir hamkasbim. Ammo...

Aspiranturada o'qib yurgan vaqtimda onam: "Bolam, himoyang qachon?" – deb so'rardi. Afsuski, onamga ilmiy himoyamni ko'rish nasib qilmadi. NASA tomonidan mukofot oldik, uniyam ko'ra olmadi. Nomimiz asteroidga berilganini ko'rish nasib qilmadi. Mana shular mening eng katta armonim.

Asteroidlarga olimlarning ismini berish ularning ilmiy faoliyati va fan rivojiga qo'shgan hissasini xalqaro miqyosda e'tirof etishning o'ziga xos shaklidir. Tasdiqlangan nomlar xalqaro astronomik nomenklaturaga kiritiladi hamda kelgusidagi ilmiy maqolalar, kataloglar va efemeridalarda obyektlarning rasmiy nomi sifatida qo'llanadi.

Avvalroq bu ikki olim NASAning sayyoraviy mudofaa tajribasi doirasidagi faol ishtiroki va hissasi uchun "Group Achievement Award" mukofoti bilan taqdirlangan edi.

Har ikki vatandoshimizning bu yuksak e'tiroflarga erishishi Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessansni barpo etishga qaratilgan ezgu sa'y-harakatlarning yorqin samarasidir. El-yurtimiz sharafini jahonga taratayotgan iqtidorli olimlarimizga ilm-fan olamida yanada yuksak muvaffaqiyatlar yor bo'lishini tilaymiz.

**Zarnigor IBROHIMOVA
suhbatlashdi.**



OLAM OLIMI

KARL BARRI SHARPLESS

ikki karra nobelchi



HAYOT YO'LI

Karl Barri Sharpless 1941-yil 28-aprelda, AQSHning Filadelfiya shahrida tug'ilgan. 1963-yilda Dartmut kollejni tamomladi. Stenford universitetida kimyo bo'yicha doktorlik (PhD) ilmiy darajasini oldi. Faoliyati davomida Massachusetts texnologiya instituti hamda Kaliforniyadagi Skripps tadqiqot institutida faoliyat yuritgan.

Asosiy tadqiqotlari organik sintez, katalitik reaksiyalar va yangi molekullarni yaratish texnologiyalariga bag'ishlangan.

ILMIY YUTUQLARI

Asimmetrik katalitik oksidlanish usullarini ishlab chiqqan. Bu texnologiya turli xil dori vositalari va biologik faol moddalarni yuqori aniqlikda sintez qilish imkonini berdi.

"Klik kimyosi" konsepsiyasini yaratdi. Ushbu yondashuv molekullarni tez, ishonchli va ortiqcha chiqindilarsiz birlashtirish imkonini berib, organik kimyoda yangi yo'nalishga asos soldi. Keyinchalik ushbu texnologiya asosida rivojlangan bioortogonal kimyo usullari tirik hujayralar ichida kimyoviy jarayonlarni kuzatish va tahlil qilish imkonini berdi.

Ilmiy ishlari bugungi kunda farmasevtika, onkologiya, genetika, biotexnologiya, diagnostika, materialshunoslik, va albatta, kimyoda qo'llanmoqda.

E'TIROF

Olim ikki marta Nobel mukofoti bilan taqdirlangan besh olimdan biri.

2001-yil asimmetrik katalitik oksidlanish reaksiyalarini ishlab chiqqani uchun mukofotning ikkidan bir ulushi; 2022-yil "klik kimyosi" rivojiga qo'shgan ulkan hisssasi uchun uchdan bir ulushi bilan taqdirlandi.

Shuningdek, u AQSH Milliy fanlar akademiyasi a'zosi bo'lib, dunyodagi ko'plab ilmiy tashkilotlar tomonidan yuksak e'tirof etilgan.

JAMOATCHILIK POZITSIYASI

1970-yilda laboratoriyada sodir bo'lgan baxtsiz hodisa oqibatida Karl Barri Sharpless bir ko'zidan ayrilgan. Shu voqeadan keyin u laboratoriya xavfsizligi masalalariga alohida e'tibor qaratib, butun dunyo olimlarini himoya ko'zoynaklaridan muntazam foydalanishga chaqirib kelmoqda. Uning fikricha, ilmiy yutuqlar bilan bir qatorda tadqiqotchilar xavfsizligi ham birinchi o'rinda turishi lozim.

IBRAT

Sharpless murakkab kimyoviy jarayonlarni imkon qadar oddiy, tabiiy va toza ("klik") darajaga keltirishga intildi. Buyuk kashfiyotlar ko'pincha murakkab narsalarning eng oddiy va aniq yechimini topishdan boshlanadi.

29 yoshida, ilmiy faoliyatining ayni boshlanishida bir ko'zidan ayrilganiga qaramay, u tushkunlikka tushmadi. Bu baxtsiz hodisani mag'lubiyat emas, balki atrofda qilarni himoya qilish, tartib va xavfsizlikni oliy qadriyatga aylantirish imkoniyati deb bildi.

Nobel mukofotini olish olamshumul yutuq. Uni ikkinchi marta qo'lga kiritish kamdan kam nasib qiladigan baxt. Bu baxt asosi esa muvaffaqiyatlar bilan mag'rurlanmaslik va umr bo'yi izlanishdan to'xtamaslikdir. Eng muhimi, jismoniy nuqsonlardan uyalmay, aksincha, o'zida yangi kuch topib oldinga intilish bu yutuqlarning boshi, balki eng birinchisidir.

Jasmina ISROIL tayyorladi.



MUVAFFAQIYAT FORMULASI

– Oyi, kitob olib bering!
– Nima qilasan kitobni? Hozir hech kim o'qimayapti-ku! Uyga boraylik, telefonimni beraman, o'ynaysan.

(Kitob do'koni yonidagi ona-bola suhbatidan)

Radio va televideniye kirib kelganda ko'pchilik, endi odamlar kitob o'qimay qo'yadi, deb jiddiy cho'chigan edi. Lekin bunday bo'lmadi. Kitob o'zining yuksak nufuzini, qadr-qimmatini asrab qoldi. Ammo, afsuski, smartfon paydo bo'lganidan so'ng kitobdan uzoqlasha boshladik, kitob inqirozi yuzaga keldi. Qo'limiz kitobni varaqlashdan ko'ra, telefonni erkalashni afzal ko'rdi.

Go'yo ochofat chigirtka quyuni dalalarni payhon qilib, qiron solganidek, gadjetlar odamlarning fikrini, dunyoqarashini, bilimni sayozlashtirib yubordi.

Bir gapni ochiq ayta: telefonga qarshi emasman. Bu ham insoniyatning aql mahsuli. Afsuski, bizni kitobdan ko'ra, telefon sehri ko'proq joduladi. Ana shu jodugar aqlimiz, idrokimiz va tafakkurimizni ancha zaiflashtirayotgani juda tashvishli...

“

Odamlarning ong-u tafakkuri, dunyoqarashini o'zgartirish, ma'naviy saviyasini yuksaltirish haqida ko'p gapiramiz. Lekin bu borada eng oddiy va ayni paytda eng ta'sirchan vosita – bu kitob emasmi? Men shunga aminman – kitobsiz taraqqiyotga, yuksak ma'naviyatga erishib bo'lmaydi. Kitob o'qimagan odamning ham, millatning ham kelajagi yo'q.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti

”

Shu o'rinda bir misol keltiray: xonadonimizda shunday voqea sodir bo'ldi. Nabiralarimiz buvisining tug'ilgan kunini nishonladik. Zalda kattagina stolimiz bor. Kamina shu stolning bir chetida o'ttirib, u-bu narsa qoralayman. Yana bir chetida esa doimo 5-10 ta kitob turadi. Bo'sh qoldim deguncha, qo'limga olaman. Nabiralarim ham kitoblardan birortasini varaqlab ko'ramikin, zora qiziqib o'qisa, deb o'ylayman. Ba'zan kitoblarning ibratli joylaridan o'qib beraman. Bu foyda bermaydi. Chunki ularning hammasi o'sha matoh bilan andamon.

O'sha kun o'g'lim onasiga yangi chiqqan telefon sovg'a qildi. Nabiralari yugurib borib, ayfonga asalariday yopishdi. Ulardan oldin telefonni qo'limga oldim-da, stol burchagida turgan kitoblarga ishora qilib, shunday dedim:



– Qaranglar, mana bu kitoblar doim shu joyda turadi. Lekin biortangiz varaqlab ham ko'rmagansiz. Yangi telefonni ko'rib, joyingizda o'tirolmay qoldingiz.

Hamma jim bo'ldi. Lekin nabiralari kitobga emas, ko'zlari yonib, hali ochilmagan yangi telefonning g'lofiga intizorlik bilan termulib turardi.

Bu dakkim faqat nabiralaringa emas, balki o'smir va yoshlarga tegishli, deb o'ylayman.

Yana bir gap: bolalarning kitob o'qimasligi, telefonga mukkasidan ketishiga ota-onalarning loqaydligi ham sababchidir. Kitob mavzusida bo'lgan bir teleko'rsatuvda: “Avval onalarning qo'lidagi telefonni olish kerak. Shunda butun oila kitob o'qishga qaytadi”, degan edim. Chunki bola ko'proq onasi yonida, onasi ko'magida voyaga yetadi. Ona qo'lidagi telefonga bola, albatta, mahliyo bo'ladi, uni ushlab ko'rgisi keladi...

Bu faqat oilalarning, yoshlarning muammosi emas, balki jamiyat, bir tuzumdan yangi tuzumga o'tish jarayonida sodir bo'layotgan umuminsoniy dardlar va jiddiy muhim vazifalar ekani ayon bo'layotir...

Men o'rta tashlagan kitobxonlik muammosi butun dunyoda dolzarb bo'lib turibdi. Ba'zi davlatlar smartfonlardan o'smirlar foydalanishini qonun darajasida taqiqlab qo'yayotganiga guvohmiz. Lekin biz temir qoidalardan ko'ra, o'zbekona rag'bat va ibratni afzal ko'radigan xalqmiz.

Prezidentimiz “Milliy kitobxonlik harakati” dasturiga start bergan tarixiy kunda dunyo shiddat bilan o'zgarayotgani, raqamli texnologiyalar, zamonaviy gadjetlar va sun'iy

intellekt hayotimizga tobora chuqur kirib kelayotganini ta'kidlarkan, bunday murakkab sharoitda insonning mustaqil fikrlay olishi eng katta ustunlik ekanini alohida qayd etdi.

“Kitob o'qiydigan odam teran va sog'lom fikrlaydi. Bunday tafakkurga ega inson esa jamiyatni o'zgartira oladi”, – dedi Prezident.

Ta'kidlanganidek, Yangi O'zbekistonda mutolaa madaniyati va kitobga e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarilmoqda. Kitobxonlik faqat ta'lim masalasi emas, balki millat kelajagi, xalqimizning ma'naviy qudrati va mamlakat raqobatbardoshligini ta'minlaydigan muhim omildir.

Davlatimiz rahbari ulug' ajdodlarimiz – Imom Buxoriy, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek kabi mutafakkirlar insoniyat sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shganini qayd etdi. Ularning yuksak marallarga erishishida ilimga intilish va kitob mutolaasi asosiy manba bo'lgan.

Shu ma'noda, mamlakatimiz xalqaro maydonda qudratli va yuksak salohiyatli xalq sifatida o'zini namoyon etishi uchun ikki mustahkam asosga tayanishi zarurlik ta'kidlandi. Bular – bebaho ilmiy va ma'naviy merosimiz hamda zamonaviy ilm-fan va ilg'or texnologiyalardir.

Kitobni “Birinci mo'jiza” deya benihoya qadrlagan O'zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov uzoq yillar oldin jiddiy ogohlantirgan edi: “Hozirgi yoshlar o'rtasida yalpi ravishda kitobdan yuz o'girish, imkoni boricha kam o'qish kasali paydo bo'lgan. Nega? Ehtimol, bunga biz – kattalar

aybdormiz. Ehtimol, har xil dastur-u talablarga amal qilib, bolalarning avji o'qiydigan paytida ularga bo'lar-bo'lmas kitoblarni tiqishtirib yotgandirmiz va bu qilg'imiz bilan biz o'zimiz ulardagi havasni tag-tomiri bilan yo'q qilayotgandirmiz. Ehtimol, biz – kattalar eng yaxshi niyatlar bilan qurollangan holda, ustimizga dono murabbiy libosini tashlab olib, kitob o'qishdek huzurbaxsh bir ishni zerikarli bir mashg'ulotga, kishini diqqinapas qilishdan boshqa narsaga yaramaydigan majburiyatga aylantirib qo'ygandirmiz”.

Ustoz ushbu suhbat davomida yana shunday umidbaxsh fikrlarni bildirgan: “Albatta, yangi asrda juda ko'p yangiliklar bo'ladi, lekin men aminmanki, kitobning janozasini o'qishga hali erta. Menimcha, kitob degan narsa insonning tabiati, mohiyati bilan bog'liq bo'lgan buyuk mo'jizadir. Inson bor ekan, kitob ham qay bir shaklda yashayveradi. Shundoq ekan, bu mo'jizadan bahramand bo'lishdan to'xtamang, azizlar!”

Kitobsevar ulug' muallimning: “Bu mo'jizadan bahramand bo'lishdan to'xtamang, azizlar” degan dono so'zlarini shior qilib maktablar va oliy o'quv yurtlarida yozib qo'yish kerak, deb o'ylayman. Ko'z ko'rganini aql eslab qoladi.

Kitobga do'st bo'lsangiz, u sizni hech qachon yolg'iz tashlab ketmaydi. Sizni kelajakning nurlil manzillariga ishonch bilan boshlaydi, tafakkuringizni charxlaydi. Kitob sizga dunyo va hayotning sirlarini ochadi. Siz eshitmagan, bilmagan, o'qimagan tilimlarning kalitlarini hadya etadi. Tarix va taraqqiyotdan saboq beradi.

Agar kitobni quyosh nurlari ostida o'qisangiz, butun vujudingizda quyosh

JA'HON AYVONIDA

SAYYOH OLIB KELGANLARGA BONUS

Dubayga xorijliklarni olib kelgan BAA rezidentlari va fuqarolariga 817 dollardan ortiq qiymatdagi mukofot paketi beriladi. Bu haqda Dubay Iqtisodiyot va turizm departamentiga tayanib “Gulf News” xabar berdi.



Tashabbus shartlari: 18 yoshdan oshgan va amaldagi Emirates ID'ga ega fuqarolar o'z do'stlari yoki qarindoshlari ma'lumotlarini ular kelishidan oldin onlayn ro'yxatdan o'tkazadi. Mehmonlar Dubayga 2026-yil 20-iyuldan 31-oktyabrgacha bo'lgan davrda – havo, dengiz yoki avtomobil transportida kelishi, amaldagi sayyohlik vizasiga yoki kelish vaqtida viza olish huquqiga ega bo'lishi kerak.

TO'LIQ RAQAMLI VIZAGA O'TILDI

Buyuk Britaniya qog'oz va plastik hujjatlar o'rniga to'liq raqamli immigratsiya tizimi (eVisa)ga o'tdi. Bu haqda hukumat portalida ma'lum qilindi.

Buyuk Britaniya immigratsiya boshqarmasi (UKVI) endi ariza beruvchilarning pasportlariga viza stikerlarini yopishtirmaydi. Barcha yangi vizalar elektron viza (eVisa) shaklida



rasmiylashtiriladi. Mazkur tizim 2018-yildan beri ishlab kelmoqda va undan millionlab odamlar foydalangan.

Elektron vizalarning afzalliklari sifatida ularning xavfsizligi (yo'qotib qo'yish, o'g'irlash yoki qalbakilashtirish mumkin emasligi), shuningdek, chegarada, ish beruvchilar va uy ijaraga beruvchilar oldida viza statusini tasdiqlashning tez hamda qulayligi ko'rsatilgan.

15 YOSH DAN KICHIKLARGA INTERNET TAQIQLANDI

Fransiya parlamenti 15 yoshdan kichik bolalarning ijtimoiy tarmoqlarga kirishini taqiqlovchi qonunni ma'qulladi. Bunga dunyo bo'ylab ijtimoiy tarmoqlarning voyaga yetmaganlar salomatligi va xavfsizligiga salbiy ta'siri haqidagi xavotirlar sabab bo'ldi.



Fransiya Yevropada birinchi bo'lib bunday cheklorni joriy etdi. Mazkur chora ilk bor 2025-yilda Avstraliyada qo'llangandi. Mam-

lakatda 16 yoshgacha bo'lganlar uchun Facebook, Snapchat, TikTok va YouTube kabi tarmoqlardan foydalanish taqiqlangan edi.

GITLER TUG'ILGAN BINO

Adolf Gitler tug'ilgan Avstriya chegarasidagi bino rasman politsiya uchastkasi sifatida ish boshladi. Avstriya hukumati bu orqali binoning neonatsistlar uchun ziyoratgohga aylanib qolishining oldini olmoqchi.



Sobiq xususiy bino Braunau-em-Inn shaharchasida joylashgan. Unda ilgari imkoniyati cheklangan insonlar uchun xayriya tashkiloti ishlagan. Hukumat yillar davom etgan bahslardan so'ng, 2017-yilda binoni majburiy ravishda sotib oldi.

ENDI PREZIDENTLIK SAYLOVI BO'LMAYDI



Nikaraguaning 80 yoshli prezidenti Daniel Ortega mamlakatda endi saylovlar o'tkazilmasligini ma'lum qildi, deb xabar bermoqda Reuters.

Ortega 1979-yildan 1990-yilgacha prezidentlik lavozimida bo'lgan, 2007-yilda yana ushbu lavozimga saylangan va o'shandan beri uni tark etmagan. U 2011, 2016 va 2021-yillardagi prezidentlik saylovlarida g'olib deb e'lon qilingan. Davlat rahbarining so'zlariga ko'ra, saylov-larning bekor qilinishi muxolifat yo'llarini yopishga qaratilgan.

KANADA TOVARLARIGA BOJ

AQSH prezidenti Donald Trump Kanadadan keltiriladigan ayrim tovarlar importiga qo'shimcha 50 foizli bojlar joriy etdi, deb xabar berdi Oq uy.



Gap Kanadaning bir qator tovarlari – “vinodan tortib hokkey tayoqchalari va sementgacha” bo'lgan mahsulotlar haqida bormoqda. Bojlar energiya resurslari, kaliyli o'g'itlar, baliq va kamyon yer metallariga, shuningdek, AQSH bojlari allaqachon amal qilayotgan tovarlarga tatbiq etilmaydi.

Shu tariqa, Associated Press ta'kidlaganidek, tariflar Kanada importining katta qismiga joriy etiladi. Reuters nashrining qo'shimcha qilishicha, gap deyarli 20 milliard dollar qiymatdagi mahsulotlar haqida bormoqda.

IMTIHON JAVOBLARI TARQALIB KETDI



Hindistonda imtihon savollarining sizdirilishi ortidan minglab yoshlar norozilik namoyishlariga chiqdi. Namoyishchilar mamlakat Ta'lim vaziri Dxarmendra Pradhaning iste'fosini talab qilmoqda. Bu haqda “Reuters” xabar berdi.

Faollar bu holat millionlab talabalar taqdiriga ta'sir qilganini, ayrim holatlarda esa yoshlar orasida o'z joniga qasd qilish holatlari qayd etilganini bildirmoqda.

QIRG'IZISTON YER SOTMAYDI

Qirg'iziston Prezidenti Sadir Japarov mamlakat hududidagi yerlar sotuvga qo'yilmasligini, ulardan asosiy maqsad iqtisodiyot va xalq farovonligi uchun foydalanish ekanini aytdi. Bu haqda u o'zining Facebook'dagi sahifasida yozdi.

Davlat rahbariga ko'ra, chegara masalalari hal etilganidan keyin Qirg'iziston hududi 15 ming 572 gektarga ko'paygan va hozir 20 mln 9 ming 572 gektarni tashkil etadi. Mamlakat hududining asosiy qismi – 94,4 foizi tog'li hududlardan iborat.

“Biz yerlarimizni sotmaymiz. Ammo investitsiyalarsiz mamlakat rivojini ta'minlash qiyin”, deydi Japarov.

Ba'zilar kitob tufayli ro'yobga chiqadigan buyuk xazinalarni, ilm durdonalarini chetlab o'tib, o'tkinchi hoy-havaslar, yengil va soxta yo'llar bilan boylik orttirish, poydevori yo'q imoratlarda shunchaki hayot kechirishni orzu qiladilar. Quruq orzu bilan yashab bo'lmaydi axir!

Kitobning bebaho o'rnini faqat kitob bosadi. Kitobning inson hayotidagi vazifasi beqiyos darajada yuksak. “Kitob o'qishga vaqtim yo'q”, deyish – faqat bahona. Mutolaa uchun xohish va istak kerak. Nega yapon xalqi ilg'or va aqliy yuksak millatlar qatorida muqim turadi. Chunki ular har kuni qirq daqiqani kitob mutolaasiga qat'iy ajratar ekan. Yuksalib borayotgan xalqlari kitob bilan dunyoni hayratga to'ldirayotganini ko'rib turibmiz. Doim kuzatib kelaman, ko'p yillardan buyon hindistonliklar kitob o'qish bo'yicha jahonda birinchi o'rinni bermay kelayotir.

Afsuski, biz telefondan to'g'ri foydalanishni hali hanuz bilmaymiz. Yengil-yelpi, sayoz va quruq narsalarni, bachkana voqea yo arzon kulgi aks etgan kontentlarni qayta-qayta ko'rishdan erinmaymiz. Telefonda berilayotgan odob-axloq, tarbiya mavzusidagi chiqishlarni chetlab o'tamiz. Qaragimiz ham, o'qigimiz ham kelmaydi.

Shu o'rinda, kitob o'qish tufayli tafakkuri yuksalib, rivojlanib borayotgan davlatlarning yirik shaharlarida qancha kitob do'konlari mavjudligi haqidagi ibratli ma'lumotlarni keltirmoqchimiz. Masalan, Shanxayda 3800, Tokioda 1430, Parijda 1134, Nyu-Yorkda 839, Moskvada 542, Mumbayda 525 ta kitob do'koni faoliyat yuritayotgani qayd etilgan.

Bugun Yer sharining murakkab taqdiri, tahlikali holatining yechimi kitobdadir. Urushlar, vayronagarchilikka faqat kitob qalqon bo'la oladi. Insoniyat ma'naviyatni saqlab qoladimi yo yo'qmi – bu muammoni hal qilishda kitob hakamlik vazifasini bajaradi.

Bir vaqtlar kitob bizning do'stimiz, deb quvonch bilan aytardik. Chunki u haqiqiy va chin do'st edi. Bugun esa – haloskorimiz!..

Ashurali JO'RAYEV



Boshlanishi 1-sahifada.

Atrof sokin. O'zi yozganiday, chinor shox-laridagi qor eriy boshlagan, muz tomchilari yerga chak-chak tomadi. Adabiyot muzeyi hovlisidagi Alisher Navoiy haykaliningallasida oppoq qor, yelkasiga esa moviy kabutar qo'ngan...

...
– Qayerga ketyapsan?
– Hirotda. Bobomning huzuriga. Qabrini ziyorat qilmoqchiman.

Safarnomada Shahriyorni qayta kashf etganday bo'ldim. Men uni bosiq, shoirilarga xos hislarga bo'ysunavermaydigan, bironing oldida qo'shiq aytish tugul, yolg'iz qolganda ham xirgoyi qilmaydigan yigit, deb o'ylandim. Kitobdagi Shahriyor boshqacha bo'lib chiqdi. U goh safarga chiqqan shoir, goh qo'l telefonini kameraga aylantirgan muxbir, goh har bir qadimiy g'ishtdan bobolarining barmoq izini qidirayotgan tadqiqotchi, goh muzlab, och qolib, "Nima zaril edi?" deb o'zini koyiyotgan yigit, goh zavqi ichiga sig'may qo'shiq aytib yuborayotgan shovvoz, goh Navoiy sag'anasida jorubkash.

Safarnomada yozishicha, bolaligida otasi uni Shahrisabzga, Amir Temur nomi bilan bog'liq bir joyga olib borgan. U o'shanda ulkan tosh ostida Sohlabqiron yotibdi, deb o'ylagan. Navoiyning maqbarasini esa bolalik tasavvuri bilan Navoiy viloyatidagi Hirotdan shaharda, deb faraz qilgan. Bolada. Keyinroq, maktabda o'qigan jug'rofiya darsligi uning xayolidagi Hirotni Afg'onistonga ko'chiradi. Tarix kitoblari esa bu shaharni butun bir tamaddun poytaxti qilib ko'rsatadi unga.

Odamni orzu to'lg'a yo'llashi mumkin, ammo xatarga yuzma-yuz chiqishga unday olarmikan? Menimcha, buning uchun orzuning o'zi kam. Armon ham kerak... Shahriyor "Boburiynoma" nomli asarni o'qigan. Keyin ekspeditsiyaga kechib tug'ilganidan o'kingan. "Qaniydi, o'sha paytda tug'ilgan bo'lsam-u, ularga qo'shilsam", deb armon qilgan. Qolaversa, ozarbayjonlik navoiyshunos Almaz Ulvi unga Hirotda ikki marta borib, hazratni ziyorat qilgani, Suyima G'aniyeva esa olimaga ro'mol tutib: "Yana yo'ling tushsa, shu ro'mol bilan hazrat Navoiy qabrtoshining g'uborini artib bo'lg'in", deganini so'zlab bergan. Bunday hikoyalarni eshitgan shoirning ko'ngli tinch turadimi?

Muallif Afg'onistonda yigirma kun yuradi. Salkam uch ming kilometr yo'l bosadi. Mozori Sharif, Balx, Hirotda, Kobul, G'azna, Qandahor, Andxo'y, Ishkamish... Alisher Navoiy, Mavlono Lutfiy, Sulton Husayn Mirzo, Gavharshodbegim, Kamoliddin Behzod, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud G'aznaviy, Boborahim Mashrab, Robiya Balxiy bilan bog'liq qadamlarni ziyorat qiladi. U safarda eshitganlarini kitoblardan tekshiradi, mahalliy odamlarning hikoyalarni yozib oladi, olimlarni izlaydi, muallimlar bilan suhbat quradi, qabristonda adashadi, xaroba devorlarni tasvirga tushiradi, ko'rsatuv tayyorlab, maqola yozadi.

Men kitobni safarnoma shaklidagi dala tadqiqoti deb qabul qildim. Hatto, undan ham kengroq. Bu asar media-safarnoma: matn bor, surat bor, she'r bor, suhbat bor. QR-kodni skanerlasangiz, kitobda tasvirlangan manzara jonlanib, telefon ekraniga chiqib keladi. Hazrat Bobur "ko'rdim" deb yozgan bo'lsa, Shahriyor "ko'ring" deb video ham qo'shgan. Davrning farqi shu-da.

Safarnomada men qayta-qayta o'qigan qism – Kobul. Muallif bu shaharga kitoblar shakllantirgan tasavvuri bilan kiradi. Bobur maqtagan, so'nggi manzili shu yer bo'lishini orzu qilgan Kobulni izlaydi. Ammo ko'z oldidagi shaharning havosi og'ir, ko'chalari chang, harakati betartib, ariqlari chiqindiga to'lgan. Darvoza oldida qurulli soqchi. Bobur bog'i yopiqliq. "Bobur maqtagan Kobul shumi?" – degan hayrat o'quvchining ko'ngliga ko'chadi. Negaki, muallif shaharni bezab ko'rsatmaydi. Ammo uni yerga ham urmaydi. Kobulni jarohatlangan xotira sifatida ko'radi: o'tmishi shonli, buguni toliqqan, ammo ertasidan umidvor shahar. Ana shu xolislik kitobni romantik safarnoma bo'lib qolishdan saqlaydi.

Safarning boshqa kuni esa oddiy, ammo butun kitobning ruhiga tatiydigan voqea sodir bo'ladi. Mehmonxona xo'jayini Shahriyorning O'zbekistondan kelganini eshitishi bilan chehrasi yorishib ketadi: "Imom Buxoriy yurtidanmi?!" Xo'jayin Shahriyorni bag'riga bosadi va xodimlariga eng yaxshi, eng toza xonani berishni buyuradi. Natijada yetti kunlik turarjoy haqidand 210 dollar tejaladi. Imom Buxoriy nomi bir necha asr masofadan turib ham begona insonni qarindoshga aylantiradi. Biz "buyuk ajdodlarimiz – xalq diplomatiyasining tayanchi" deb ko'p



gapiramiz. Kitob esa bu gapning hayotda qanday bo'lishini bir misol bilan ko'rsatib beradi.

“– Hibatullo, sen mashina tutib, narsalarim-ni mehmonxonaga olib boraver. Oyoq kiyimimni ham ol. Men hazrat Alisher Navoiy maqbarasigacha yalangoyoq boraman. Yig'lab-yig'lab boraman, g'azallaridan aytib-aytib boraman!” – degan gapni o'qib, Hirotda Shahriyorning “devona”ligi tutganiga chindan ishonib ketasiz. Ha, kitobdagi boshqacharoq Shahriyor shunday. U Hirotda yetti kun qolib, hazrat maqbarasini yetti marta ziyorat qiladi. To'qqizinchi fevral kuni supurgi izlaydi. Topolmay, bir do'kon eshigi yonidagi supurgiga ko'zi tushadi. Do'kondor nima qilishini so'raydi.

– Navoiy hazratlarining maqbarasini tozalayman, – deydi Shahriyor.
Do'kondor yigit ikki qo'lini ko'taradi:
– Supurgi senga tekin, qarindosh! Men maymanalik o'zbekman.
Chegara bor. Pasport bor. Siyosat bor. Ammo qarindoshlikka bularning hech biri to'g'anoq bo'la olmaydi.

Shahriyor Toshkentdan chiqish oldidan haykal qarshisida aytolmagan gapini Hirotda she'r qilib o'qiadi:
*Xush kelarni sizga kelganim?
Qaytmaydimi ko'nglingiz, qaytsam?
Sag'anangiz atrofida jim
Nomingizni shivirlab aytsam:
Hazratim...*
She'ming so'nggi bandlarida O'zbekiston ahliidan salom keltirganini aytadi. Majnun, Farhod, Bahrom singari qahramonlar orasida o'zini ham bir oshufta, bir yo'lovchi deb his qiladi. Bu she'rni kitobga qo'shib qo'yilgan lirik bezak sifatida ko'rmaydiz. Muallif Navoiy huzuriga faqat jurnalist bo'lib emas, shoir bo'lib borganini tasdiqlovchi hujjat.

Shahriyorning yutug'i shundaki, tasavvurimizdagi uzuq-yuluq shulomtlarni Hirotning tuprog'i, odamlarining ovozi va o'zining hayratiga qo'shib, o'quvchining ko'ngliga olib kira olgan. Biz Navoiyni shoir deb bilamiz. Shahriyor uni madrasalar, rabotlar, masjidlar, xonaqohlar, hammomlar, ko'priklar, hovuzlar, ariqlar bunyodkori sifatida ko'rsatadi. Biz Navoiyni Sulton Husayn Mirzoning vaziri va do'sti deb bilamiz. Shahriyor Xondamir ma'lumotlari orqali bu do'stlikning so'nggi kunlarini ko'rsatadi. Navoiy vafot etganda Sulton Husayn Mirzo uning tubutini yelkasiga olib, piyodada boradi. Xurosonda yetti kunlik motam e'lon qilinadi. Bazmlar to'xtatiladi. Muhtojlarga ehson tarqatiladi. Shu tariqa, buyuk davlat arbobining qadriini u ketganda paydo bo'lgan bo'shliq ko'rsatadi.

Biz Navoiyning qabri Hirotda ekanini bilamiz. Ammo qabr ustidagi hozirgi xonaqoh 1947-yili hirotilik savdogar Hoji G'ulomhaydar Muxtorzoda tomonidan bunyod etilgani, keyingi notinch yillarda nurab borganini, keyingi notinch yillarda qaytib fidoyilar uni qayta-qayta obod qilgani, 2015-yilgi ekspeditsiyada G'ozg'on toshidan salkam uch yarim tonnali yangi sag'ana o'rnatilganini bilmaymiz. Maqbara atrofiga ekilgan ikki ming tup daraxt haqida ham. Shahriyor ularning yonida yana bir ko'chat qo'shadi.

O'zbekistondagi navoiyshunoslik maktablari haqida bilamiz. Afg'onistondagi navoiyshunoslarni-chi? Shahriyor bizga 1968-yili Kobulda Navoiyning hayoti, ijodi va obidalariga bag'ishlangan yirik tadqiqotini chop ettirgan Muhammad Ya'qub Vohidiy Juzjoniyni tanishtiradi. U Afg'oniston Fanlar akademiyasida o'zbek va turkman tillari va adabiyoti institutini boshqargan. Keyin Saripulda Alisher Navoiy nomida xususiy kutubxona tashkil etgan.

Kitobdagi yana bir lavha maqolaning avvalidagi manzarani yodimga soldi. Toshkentda – Adabiyot muzeyi hovlisida, sallasiga qor qo'ngan, yelkasida moviy kabutar turgan Navoiy haykali. Afg'onistonda esa buzib tashlangan yodgorlik. Atrofida beton parchalari, qoraygan temir armatura,

chang va loy. Ko'cha shovqini, motorikshalar, tartibsizlik. Undan narida obod, ozoda tartibga keltirilgan Maxtumquli Firog'iy yodgorligi. Maxtumquliga ko'rsatilgan ehtirom kishini quvontiradi. Ammo o'quvchi ko'nglida shunday og'riqli savolni qo'zg'aydi: nega Navoiyning yodgorligi ham shunday asrab-avaylanmasligi kerak? Safarnomada tasvirlangan bolalardan biri: “Navoiy ham shu yerda bo'lsa edi... shunday chiroyli joy qilib berishsa...” deydi. Bola siyosiy bayonot bermayapti. U xotiraga joy so'rayapti. Shahriyor ularga O'zbekistonda o'nlab Navoiy haykali, sharif nomi bilan atalgan teatr va kino uylari, keng va gavjum ko'chalar, muzeylar, metro bekati, boy kutubxonalar borligini aytadi. Bolalar sukutga cho'madi...

Aynan shu yozuvlar meni shunday o'ylashga undadi: Navoiy merosi faqat O'zbekistonga tegishli emas. Agar Hirotdagi qabr yoki Afg'onistonning boshqa bir shahridagi haykal qarovsiz bo'lsa, “u boshqa davlat hududida” deb o'zimizga tasalli berish uyat. Farzandlik nuqtai nazaridan uyat. Shu bois, O'zbekiston va Afg'oniston mutaxassislari ishtirokida Navoiy va Buyuk temuriylar davriga oid obidalarni xatlovdan o'tkazish, ta'mirlab holatini aniqlash, raqamli pasportlarini yaratish, mahalliy jamoalar bilan hamkorlikda asrash dasturini yo'lga qo'yish lozim.

Afg'on o'zbeklari orasida “Oysha va Mulla Mamadjon” degan sevgi rivoyati bor ekan. Tafsiloti shunday: ikki yosh bir-birini sevib qoladi. Qizning oilasi bunga qarshi. Oysha dardini qo'shiq qilib aytadi. Ittifoqo, Navoiy o'sha yerdan o'tib qoladi. Qizning ovoizdagi dardni sezib, gapga tutadi. Keyin otasining oldiga shaxsan borib, Oyshani Mulla Mamadjonga so'raydi. Ota Navoiyning hurmatidan nikohga rozi bo'ladi.

Bu rivoyat, tarixiy hujjat emas. Ammo xalqning Navoiysi qaysi kitobdagi Navoiydan kam? Xalq uni yoshlarning baxtini ochgan mehribon amir sifatida xotirasida saqlabdi, demak, odamlar asrlar o'sha qudratli amaldorlarni emas, o'z dardiga quloq tutadigan insonlarni eslab qolar ekan!

Kitobda 1965-yili Sulton Husayn Mirzo va Navoiy qabrlari ochilgani, bu jarayonda Ziyovuddinxon ibn Eshon Boboxon singari olim va ulamolar qatnashgani haqida ham ma'lumot keltiriladi. Sulton Husayn qabridan Amir Temurga nisbat beriladigan uzuk topilgani, uning g'oyat chigal kechgan taqdiri haqida ham ancha to'kis hikoya qilingan. Ochig'i, bu ma'lumotlar men uchun chindan yangilik bo'ldi.

“Bu kitob yoshlarga nima beradi?” degan savolga kelsak: avvalo, Navoiyni aksar yoshlar tasavvur etadigan haykaldan odamga aylantiradi. 1441–1501-yillarda yashagan Navoiyni Hirotda ko'chalarida yurgan, do'sti bilan davlat yumushini muhokama qilgan, shogirdini qo'llagan, kutubxona qurgan, ariq qazdigan, muhtojga yordam bergan, keyin o'sha shaharda vafot etgan kishi sifatida to'laqonli tasavvur etishga imkon beradi. Kitobxon Navoiyni imtihonda tushadigan savol emas, ergashsa bo'ladigan shaxs deb qabul qila boshlaydi. Yana bu kitob shukr qilishni ham o'rgatadi. “Safarim meni ancha o'zgartirdi. Hayotimizga boshqa ko'z bilan qarashni boshladim. Shukronalik hissi ortdi”, deb yozadi Shahriyor o'z iqoridra.

U Afg'onistondagi yoshlarning ta'lim, ona tili, ijod va erkin harakat borasidagi sharoitlarini yaqqol ko'radi. Keyin O'zbekistonda uddi osmondan tushib qolganday ko'rinadigan ne'matlar: maktab, kitob, sahna, televizor, erkin ijod qilish imkonini haqida o'ylab shukr qiladi. O'quvchiga shukronalik boriga munosib bo'lish ekanini anglatadi.

Amudaryoning u tomonida ham turkiyda so'zlaydigan, Navoiyni bobo deyidigan, farzandi o'zbek tilida o'qishi uchun maktab ochadigan, mehmonni uyiga boshlaydigan odamlar bor. Daryo ikki davlatni ajratadi. Oqibatni emas. Shu ma'noda, bu kitob millatni xaritada chiziq bilan o'lchamaslikni o'rgatadi.

Bu gapni isbotlaydigan bir otaxon haqida hikoya bor unda. Oyoq'ida changga belangan

maxsi, qo'llari qadoq, qalin barmoqlarining tirnoqlari sarg'aygan. Yuzida yillar mashaqqati zohir otaxon. Muallif uni kuzatar ekan, notinchlik va bekorchilik haqida o'ylaydi-da, beixtiyor so'raydi: “Shuncha qiyinchiliklar ko'ribsiz, nega bu yurtini tark etmadingiz, nega tinchroq makon izlamadingiz?” Otaxon bir zum sukut saqlaydi. Keyin oddiy, ammo so'zsiz taslim etadigan javobni beradi: “Bu yer Navoiy, Bobur, Lutfiy, Mashrablar yurgan, Temur bobomiz ot surgan, nafas olgan, muborak izlari qolgan tuproq. Ular necha asr avval bu zaminni bizga meros qilib qoldirgan. Endi men uni bir o'zbek sifatida qanday tashlab ketaman?” So'ng u muallifning o'zini savolga tutadi: “Xo'sh, mehmon yigit, sen-chi? Amir Temur va Imom Buxoriylar yotgan muqaddas tuproqni tashlab ketgan bo'larmiding?”

Bir lahzada suhbatdosh bilan musohibning o'rni almashadi. Savol bergan yigit sinovga tushadi. E'tibor qiling: otaxon vatanni faqat osoyishta kunlarda seviladigan qulay makon deb bilmayapti. Vatani uchun – nomus. Uni tashlab ketmaslik ongli va og'ir sadoqat.

Afg'on o'zbeki bu kitobda o'z shevasini, qo'shig'ini, muallimini, maktabini, mehmon-do'stligini ko'radi. Andxo'yda ona tilida ta'lim berishga urinayotgan ustozlar, Navoiy va Boburga bag'ishlab tadbir o'tkazayotgan yoshlar, uyida kitob asrayotgan ziyolilar unga yolg'iz emasligini anglatadi. Biroq shu bilan birga, uning ona tili uchun qanchalik katta badal to'layotganini ham ko'rsatadi. Shahriyor bu haqiqatni kitobning “O'zbek bo'lish mashaqqati...” deb nomlangan bo'limida, ayniqsa, og'riqli ochadi.

“Yangi yo'l” maktabi direktori va uning yordamchisini bir vaqtlar O'zbekistonda tahsil olgan, keyin yurtiga qaytib, o'zbek tilida ta'lim berishga bel bog'lagan insonlar sifatida tanishtiradi. Zamon o'zgarib, o'zbekcha maktablar birin-ketin yopilganda ham, ular taslim bo'lmaydi. Farzandini ona tilida o'qitishni istagan ota-onalar bilan xususiy maktab ochadi. Eng alamlisi, bu maktabni bitirgan yoshlarni davlat idoralari ishga olishga ishtiyoq bildirmaydi. Go'yo o'z tilida o'qigan – ayb. Go'yo inson o'z ona tilida fikr yuritsa, unga imkoniyat eshiklari yopilishi kerakdek.

Shunga qaramay, o'qituvchilar ro'zg'ori, bino ijarasi, kitob, jihoz, yorug'lik, issiqlik – bari odamlarning yelkasida. Bir ota tirikchilik tashvishiga qaramay, farzandi ona tilida o'qishi uchun har kuni bizzning pulimiz bilan hisoblaganda to'rt yarim ming so'm ajratadi. Bir oylik to'lov taxminan 135 ming so'm. Bizda oddiy kartoshkali somsa sakkiz ming so'm. U esa bir soma puliga yetmaydigan mablag'ni har kuni yig'ib, bolasining o'zbek bo'lib qolishi uchun to'layapti. Biz uchun ona tilida o'qish – Konstitutsiya, qonun, maktab va darslik bilan kafolatlangan tabiiy huquq. O'sha ota uchun esa rizqidan har kuni uzib beriladigan fidoyilik...

Maktab muammosining yonida yana bir ko'rinmas devor bor. Alifbo. Afg'onistondagi o'zbeklarning aksari arab yozuviga asoslangan o'zbek alifbosidan foydalanadi. O'zbekistondagi ma'rifiy, ilmiy-dinadigan, tarixiy, adabiy va boshqa ko'plab saytlar esa lotin yoki kirill yozuvida. Til bir, ammo yozuv boshqa. Toshkentda tayyorlangan minglab foydalı matnlar Andxo'y, Shibir'gon, Maymana yoki Hirotdagi o'zbek o'quvchisiga begona. “Alifbo yangi Amudaryoga aylanmasligi kerak”, deb yuborasan buni o'qib. Aslida, muammoning yechimi murakkab emas. O'zbekistondagi yetakchi ma'rifiy, madaniy, diniy, ilmiy va axborot saytlarining alifbo tanlash bo'limiga “O'zbekcha Afg'on alifbosi”ni kiritish kifoya.

Ishni Navoiy va Bobur asarlari, o'zbek tili va tarixi darsliklari, bolalar adabiyoti, elektron kutubxona, kasb-hunar materiallari va ishonchli diniy-ma'rifiy manbalardan boshlash



Abdulhamid MUXTOROV,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

mumkin. Keyin audio-matn, darslikning chop etiladigan nusxasi va o'qituvchilar uchun uslubiy qo'llanmalar qo'shiladi. Bu – madaniy diplomatiyaning eng arzon, eng manzilli va eng uzoq yashaydigan ko'rinishlaridan biri.

Bir yigit kitob va kamera bilan tuzatayotgan tasavvurni ba'zan ayrim teleseriallar buzib qo'yishi mumkin. Kitobda “La vergüenza española” – “ispancha uyat” degan bo'lim bor. Bu ibora inson o'zining emas, boshqaning nomaqbul xatti-harakatidan uyalishini anglatadi. Muallifga afg'onistonlik bir o'zbek suhbatdosh bizning telekanallarda ko'rayotgan seriallarda xiyonat va axloqiy tubanlik qayta-qayta tasvirlanayotganini aytib: “Nahotki, O'zbekistonda ahvol shu darajaga kelib qolgan bo'lsa?” – deganday savol beradi. Shahriyor unga: “Bizning jamiyatimizda oila muqaddas, ayol sha'ni va iffati qadrlı, oriyatli va hamiyatli insonlar yashaydi”, deb e'tiroz bildiradi. Ammo suhbatdoshning keyingi savoli uni mum tishlatadi:

– Unday bo'lsa, televizorda ko'rayotganimiz nima?

Mana shu savol oldida muallif “ispancha uyat”ni his qiladi. Men ham bu sahifani o'qib uyaldim. Biroq mening uyalishim xorijlikning oldida “bizni noto'g'ri tushunibdi”, degan xijolat bilangina cheklanmadi. Men asrlar davomida oila, hayo, oqibat, kattaga hurmat, kichikka izzat degan tushunchalarni asrab kelgan xalqning madaniy qiyofasi arzon mo'jaro va yengil sensatsiyaga almashtirilayotganidan uyaldim.

“Muallifning asosiy yutug'i nimada?” degan savolga men: “Navoiyga muhabbatini gapdan amalga ko'chirganida”, deb javob qilgan bo'lar edim. Yana bir yutug'i – Afg'onistonni shov-shuv uchun “fon” qilib olmaganida. U o'zi tasvirlagan odamlarga ism, ovoq, sheva bergan. O'quvchi Hibatulloni ham, maymanalik do'kondorni ham, andxo'ylik muallimni ham eslab qoladi. Kichik detallar bilan esda qoldirish ham katta mahorat.

Navoiyni o'rganish va targ'ib etishda ushbu kitobning ahamiyati katta. Negaki, akademik navoiyshunoslik bilan oddiy kitobxon orasida ulkan masofa bor. Olim qo'lyozma, matn va manba bilan ishlaydi. Oddiy o'quvchi esa qiziqarli hikoya qidiradi. Shahriyor shu ikkisinin o'ttasiga yo'l solgan. Xalqchil navoiyshunoslik shurida, ehtimol. Men kitobni daryi va pushtu tillariga tarjima qilish, shuningdek, afg'on o'zbeklari qo'llaydigan arab yozuvi asosidagi o'zbek alifbosida ham nashr etish kerak. Hech bo'lmaganda, elektron kitobini global tarmoqqa joylash lozim, degan fikrga keldim.

Shahriyor faqat Navoiy qabri g'uborini emas, bizning tasavvurimizga qo'ngan g'uborlarni ham artdi, aritdi. U yozgan kitob o'quvchini tomoshabin bo'lib qolishiga qo'ymaydi. U bizdan javob so'raydi: daryoning narigi tomonidagi o'zbek bolasiga qanday kitob yetkazdik? U o'qiydigan alifboda qanday sayt o'chdik? Navoiyning qarovsiz yodgorligini nima qilamiz? Seriallar va badiiy filmlarimiz vositasida xorijda o'zimiz haqimizda qanday tasavvur hosil qilyapmiz?

Bu savollar kishini avvalgidek yashashiga qo'ymaydi.



“Ahli fazl va ahli hunarga Alisherbekcha murabbiy va muqavvii ma'lum emaskim, hargiz paydo bo'lmish bo'lg'ayay.

Zahiriddin Muhammad BOBUR

”



IFTIXOR

Prezident Shavkat Mirziyoyev 22-iyul kuni Toshkent viloyati O'rta Chirchiq tumaniga tashrif buyurib, Toshkent – Samarqand yo'nalishidagi pullik muqobil avtomobil yo'li qurilishiga tamal toshi qo'ydi. "Ushbu loyiha ishga tushganidan so'ng uning afzalligini har bir yurtdoshimiz o'z hayotida, albatta, his qiladi. Toshkentdan Samarqandga yetib borish vaqti hozirgi 5 soatdan 2,5 soatga qisqaradi", – dedi Davlatimiz rahbari.

Prezidentimiz Toshkent viloyatiga tashrifi davomida A-373 va Toshkent katta xalqa yo'llari kesishmasida barpo etilgan yangi yo'l o'tkazgichni ko'zdan kechirdi. Mazkur inshoot transport oqimini samarali tashkil etish, yo'l harakati xavfsizligini oshirish, tirbandliklarni kamaytirish hamda Toshkent shahri bilan Nurafshon o'rtasidagi qatnov vaqtini 10-15 daqiqaga qisqartirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, O'rta Chirchiq tumanidagi Qorasuv kanali bo'yida amalga oshirilgan yurtdorlik ishlarini ham ko'zdan kechirildi.

O'rta Chirchiq tumani va Nurafshon shahrining rasmiy nashri – "Mash'al" gazetasi xodimi sifatida bu tarixiy tashrif qalbimga cheksiz faxr bag'ishladi. O'zbekiston o'z mustaqilligining shonli 35 yilligi sanasini nishonlash arafasida turgan bugungi shukuhli kunlarimizda yurtdoshlarimiz shukronalik sururi ila yashamoqda, desak, bu aslo baland-parvoz so'z emas.

Yana bir purma'no ibora bor: "Tan olmoq ham – mardning ishi!" Endi, muddaoga o'taylik: qani, insof bilan aytinchi, yaqin va uzoq tarixda xalqimiz bugun biz ko'rib, yashab turgan zamondagidek erk va farovon yashaganmi? Yo'q, bunday dorilomon hayot hech qachon, hech qaysi zamonda bo'lmagan!

Men buni katta avlod vakiliga mansub bo'lgan, hayotda ancha-muncha narsani



ko'rgan, yaxshi-yomon kunlarni boshidan kechirgan, turmushning achchiq-chuchugini xo'p va ko'p to'tgan inson sifatida ayta olaman. Ijodkorligim, kasbim jurnalist ekani ham mening xulosalarimni qat'iyashtiradi. "Xo'sh, nimani ko'rding-u, nimalarni bilasan o'zi?" – degan savollarga ham javob berishga tayyorman.

Tavalludim – 1957-yil. Shu sananing o'ziyoq, ko'p narsalarni ayon etadi, aslida. Bu davrlar xalqimiz tarixidagi eng og'ir zamonlar bo'lganini ko'pchilik yaxshi biladi. Ikkinchi jahon urushining qora ko'lankasi hali ketmagan, onalar, ayollarning motam liboslari yechilmagan, qaytgan erkaklarning jarohatlari bitmagan kezlar... "Qatag'on" degan mudhish yugum ham to'la barham topmagan edi bu yillar.

Mening otam – Jaylau Bozoraliyev ham o'shalarning biri, ya'ni urushning boshidan oxirigacha qatnashib, beayov janglarda yelkasi va chap oyog'i boldiridan jarohat olgan, o'ng oyog'ining bosh barmog'idan ayrilgan "frontovik" edi. Keyingi davrda

kolxozning qo'yalarini boqib, cho'pon bo'lgan otam so'ngra paxtakor bo'lgan, ko'p yillar ketmon chopgan. Otam sho'rluk shuncha azob-u zahmat chekib, bir so'm ham pensiya olmay, 58 yoshida olamdan o'tgan va uning ketmoni 17 yoshimda, endigina o'rta maktabni bitirgan yilim – mening yelkamga tushgan edi.

Men ham ketmon chopib, "paxta yakkahokimligi" azobini tortganman. Ustidan samolyotlar zahar sepib o'tgan, shuning kasofatiga yoppasiga zaharlanib, gepatit-sariq kasalligining og'ir turiga chalingan holda bir o'limdan qolganlardan biri ham menman. 1970-yillar oxirlarida yurtimizning boshqa joylarida bo'lgani kabi qishlog'imiz aholisi ham yoppasiga kimyoviy dorilardan zaharlanib, sariq kasaliga chalingandi.

O'sha davrlarda avjga chiqqan "o'zbek ishi", "paxta ishi" degan yana bir qatag'on siyosatining guvohi bo'lganman. Keyinchalik o'sha siyosat qurbonlari bo'lgan jabrdiyda insonlar bilan suhbatlashganman, ularning

qismati haqida maqolalar yozganman. SSSR parchalanib, avvalgi rishtalar uzilgani sababli, xalq boshiga yana og'ir kunlar tushgani, odamlar non topolmay, ilojsizlikdan urug'lik uchun tayyorlab qo'yilgan, dorilangan bug'doylarni non qilib yeganlarini ko'rganman.

O'sha paytlarda yurtimizda ham, yon-verimizda ham notinchlik hukm surgani ko'pchilikka ma'lum. Iqtisodiy va siyosiy inqirozlar aralash kechgan dastlabki yillarda naqd pul masalasi ham katta muammoga aylangan edi. Faqat ayrim banklar orqali beriladigan arzimagan pulni olish uchun yekkas pensionerlar soatlab navbat kutar, shu asnoda hushidan ketib, yiqilganlari ham bo'lardi. Uy-joylar, avtomobillar va boshqa qimmatbaho mol-mulklar xorijiy valyutada sotilar, shu zaruriyat yuzasidan "qora bozor"dan valyuta sotib olish ilinjida bo'lganlar bu taqiqlangan amaliyot uchun moliyaviy jinoyatchiga aylanib qolishi hech gap emasdi.

Bugun o'zimizning pulni ham, xorij valyutalarini ham xohlagan joyingizdan istagancha olishingiz mumkin. Hozir naqd pul yechib olinadigan bankomatlar tuman va shahar markazlaridagina emas, chekka qishloqlar va mahallalarda ham kecha-kunduz ishlab turibdi.

Qatrada quyosh aks etadi, deganlaridek, bugun Yangi O'zbekiston qiyofasi yurtimizning barcha shahar va qishloqlarida birday namoyon bo'layotir. Masalan, men qirg yildan ortiq vaqtdan beri ishlab kelayotgan Nurafshon shahri eng zamonaviy shaharga aylanib bormoqda. Shaharda bir nechta institut va universitetlar, Prezident maktabi, xorijiy maktab, klinikalar, "Nurafshon" telekanali,

amfiteatr, G'alaba bog'i, saylgohlar ishlab turibdi. 16 qavatgacha bo'lgan ma'muriy binolar, aholi turar-joylari qad ko'targan. Butun mamlakatimizda bo'layotgan bunyodkorlik ishlari qadrdon shahrimda ham shiddat bilan davom etmoqda. Har kuni, har daqiqada ro'y berayotgan barcha yangiliklarni, bunyodkorlik ishlarini sanab, adog'iga yetish mushkul.

Yon-atrofdagi mavzalar ham butkul o'zgarib ketgan. "Sholikor", "Qorasuv", "Tuyabo'g'iz", "Kuchluk", "O'rtasaroy" mahallalariga kelgan odam o'zini mo'jaz shaharchalarda yurgandek his qiladi. Birgina "Qorasuv" mahallasining o'zi "Mebellar shaharchasi"ga aylanib ketganini faxr bilan aytga bo'ladi. Bugun "Qorasuv"ning mebellari uchun hatto poytaxtdan, vodiy tomonlar-u va yana boshqa-boshqa taraflardan xaridorlar keladi. E'tiborli jihati, bu yerda sotilayotgan mebellarning biron-tasi ham xorijniki emas, ularni qorasuvlik ustalar yasaydi.

Mahallalar yo'llari ravon, ko'chalar charog'on, aholi turmushi farovon. Elektr, tabiiy gaz, ichimlik suvi ta'minoti ko'ngildagidek. Quyosh panellari-yu Wi-Fi tarmoqlari yetib bormagan qishloqlar kamayib borayotir. Har bir xonadonda qo'sha shaxsiy avtomobil, farovonlikka xizmat qiladigan maishiy texnikalar-u buyum-anjomlar mavjud. Mahallalarni shahar bilan bog'laydigan zamonaviy avtobuslar g'izillab qatnab turibdi. Ularning soni ham, yo'nalish manzillari ham kundan kunga kengayib bormoqda. Bu zamonaviy ulovlarda aholi ishga, o'qishga, nuroniylar shahar va tumanlar markazlaridagi barcha shart-sharoitlar muhayyo bo'lgan "Nuroniylar maskanlari"ga, uy bekalarini farzandlari

bilan bolalar maydonlariga, saylgohlarga yo'l oladilar.

Yaqin yillargacha "milliy iftixorimiz" bo'lgan paxta endilikda har joyda ahyon-ahyonda uchraydigan, borlarini ham klasterlarning o'zlari saranjomlaydigan ekin turiga aylangan. Ilgari paxta chopig'iga, yaganasiga, turli dala va ko'cha ishlariga, majburiy hasharga, ayniqsa, yoppasiga paxta terimiga jalb etiladigan millionlab odamlar endilikda o'z ishi, o'z mashg'uloti, o'z qiziqishi va orzu-umidlari bilan yashamoqda.

Barcha jabhada Prezidentimizning "Hamma narsa inson uchun, insonning baxt-saodati uchun!", "Odamlar bizdan rozi bo'lsin!", "Xalqimiz kelajakdagina emas, shu bugun baxtli yashasin", "Mahalla obod bo'lsa – yurt obod bo'ladi" kabi g'oyalari, ularning to'liq ro'yobi yurtimizda bor bo'y-basti bilan ko'rinib turibdi.

Men keltirgan davr silsilalari juda qisqa, nari borsa, bir inson umrining ma'lum yillari misolida bayon etildi, xolos. Ota-bobalarimiz, ajdodlarimiz yashagan tarixga nazar tashlasak, urushlar, yo'qchilik, sarsongarchilik, qatag'onlar, vabo va ichterlama singari ko'plab qirg'in keltiruvchi kasalliklar domida kechgan hayot manzaralari ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Shu bois, el-yurtimizning yaqin va uzoq o'tmishidan xabari bo'lgan insonlar mening bu mulohazalarimga, albatta, qo'shiladi, deb o'ylayman.

El-u yurtimizga mana shunday saodatli davrni, obodlik, ozodlik va farovonlikni ato etgan Mustaqilligimizning shonli 35 yilligini barchamiz shukronalik va yaratuvchanlik tuyg'ulari bilan kutib olaylik. Zahmatkash, tanti, erksevar ona xalqimiz doimo omon, farovon zamonimiz boqiy bo'lsin!

Ma'murjon BOZORALIYEV,
O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a'zosi

TARMOQLARDA NIMA GAP?

Ayollar yukini ko'targan erlar

Shu kunlarda oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlariga guvoh bo'lib qoldim. Jiyanimga hamroh bo'lib, poytaxtga kelib-ketdim. Abituriyentlar test sinoviga kirib ketgach, soyaga o'tib, atrofini kuzata boshladim. Ota-onalar, qarindoshlar, yoshlarning o'rtoq-dugonalari... E'tiborimni tortgan – yigitlarning ayollar sumkasini ko'tarib yurgani bo'ldi. To'rt soat o'tirgan bo'lsam, elliktacha shunday holni ko'rdim. Qiziqish ustunlik qilib, gapga ham soldim. Deyarli hammasi turmush o'rtog'ining narsalarini olib qolgan ekan. Uch-to'rt yigit esa qaylig'ini qo'llab-quvvatlashga kelgan.

Ko'rib ko'zim quvnadi, dilim yayradi. Oldinlari qizlarga "O'qishga kirsang kirding, bo'lmasa, erga tegasan. O'qib shahar olib berarmiding?", qabilida munosabat bo'lardi. Oila qurgach, o'qish xayolga ham kelmasdi. Har tomonlama yetuk qizlarning kontraktda o'qishini eshitib, ostonadan qaytib ketgan sovcilar qancha deysiz. Mana, zamonimiz yaxshilanib, odamlarning dunyoqarashi ham ijobiy tomonga o'zgaribdi.

Yosh bolasini o'ynatib, ko'tarib yurganlar ham bor. Yosh bolasi bilan ilm olishga qaror qilgan ayolning faqat eri emas, qaynota-qaynonasi ham ma'rifatlil bo'lishi kerak. Yaqin-yaqingacha ham kelin o'qishga kirs, to'lov-shartnoma pulini ota-onasi to'lardi. Kelining oyligi esa o'z-o'zidan qaynonaning karmoniga tushardi. Bu yerda neder xatomasmi? Endi xotin-qizlarning o'qishi uchun yaratib berilayotgan imtiyozlar sharofati bilan aholi to'lovdan ham, qiyinchiliklardan ham cho'chimay qo'ydi.

Shu manzaralarni ko'rganda, beixtiyor, o'z taqdirim ko'z oldimdan o'tadi. Yoshlikda o'qishga imkon bo'lmadi. Jurnalist bo'laman degan orzu

oila, turmush, farzandlarning shirin tashvishlari, qismatning achchiq izg'irirlari zabtidan so'nayozgandi. Uch farzandning onasi bo'lgach, endi talabalikka nima bor, deb yurgandim. Ammo o'zim ko'rgan-bilgan yigit-qizlarning ilgama, o'qishga beparvo yurishi, pishgan oshni ham eplab yutolmayotganini ko'rib, sabrim chidamay ketdi. "Siz o'qimasangiz, men o'qiyman", degan shasht bilan O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetining sirtqi bo'limiga hujjat topshirdim. Shukur, 44 yoshimda talabalik nasib etdi.

Mana, to'rtinchi bosqich arafasidaman bugun. To'g'ri, bolalar o'sib kelayotganda oila byudjetidan ortiqcha pul sarflash, yilda ikki marta Toshkentga kelib-ketish osonmas. Ammo orzular ushaladigan paytda jim o'tirishni ep ko'rmadim-da. Hatto bir gal "Otamning davrida o'qisam bo'lar ekan", deb she'r ham yozdim. Shularni o'ylab, bugun ota-onasi, turmush o'rtog'i davrida o'qishga kirayotgan singillarimga omad tilayman. Aslida, ular ham men kabi Yangi O'zbekiston yaratib bergan sharoitlar mevasidan bahramand bo'lyapti. Umid shulki, ana shu ota-onalardan Uchinchi Rennessans bunyodkorlari dunyoga kelib, kamol topadi.

Ba'zan ko'cha-ko'ya qizning oldida hiringlab, qizil sumkachani qo'lida o'ynatib ketayotgan yigitlarni ko'rib, asabim buzilardi. Shular ota-onasining qo'ldan yuk olishga yaramikan, deb o'ylardim. Ammo bugun yorining imtihondan chiqishini toqat bilan kutayotgan, uning narsalarini ko'tarib yurgan yigitlarni ko'rib, havasim keldi.

Ayolini asragan, unga ilm yo'llarini ochib bergan erkaklar safi kengayaversin.

Nigora NORBOBOYEVA
Telegram

XALQARO OLIMPIADA

Bugun ilm-fan taraqqiyoti mamlakatlar qudratini belgilovchi eng muhim omillardan biriga aylangan. Shu bois, dunyo davlatlari iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, sifatli ta'limni ta'minlash va ilmiy, yangicha fikrlaydigan avlodni tarbiyalashni strategik vazifa sifatida belgilamoqda. Yangi O'zbekistonda ham inson kapitaliga sarmoya kiritish, ta'lim sifatini oshirish va yoshlarning intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

TOSHKENT – JAHON ILM-FANI POYTAXTI

Bu borada amalga oshirilayotgan izchil islohotlarning amaliy samarasi sifatida Toshkent shahri 10–19-iyul kunlari 58-Xalqaro kimyo olimpiadasiga (IChO–2026) mezbonlik qildi. Markaziy Osiyo tarixida ilk bor O'zbekistonda o'tkazilgan mazkur nufuzli intellektual bellashuvda 90 dan ortiq davlatdan mingga yaqin o'quvchi, jamoa rahbarlari, xalqaro ekspertlar va mehmonlar ishtirok etdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash va ularni xalqaro maydonlarga olib chiqish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz rahbarining 2024-yil 30-sentyabrdagi "Iqtidorli yoshlar bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan tashkil etilgan Fan olimpiadalari markazining faoliyati alohida e'tiborga molik.

Mazkur markaz faoliyati doirasida xalqaro standartlar asosida fan olimpiadalariga tayyorgarlik tizimi yo'lga qo'yildi. Xorijlik murabbiy va ekspertlar jalb qilindi, terma jamoalar uchun intensiv o'quv yig'inlari tashkil etildi, zamonaviy laboratoriyalar va ilmiy-metodik baza shakllantirildi. Xususan, iqtidorli

o'quvchilarni saralash, xalqaro olimpiadalarga maqsadli tayyorlash, ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari faoliyatini kengaytirish hamda g'oliblar va ularning ustozlarini munosib rag'batlantirishga qaratilgan qarorlar ham bu borada mustahkam huquqiy asos yaratdi.

Toshkentdagi xalqaro olimpiada ana shu islohotlarning mantiqiy davomi bo'ldi. Olimpiada doirasida ishtirokchilar nazariy va amaliy bosqichlarda o'z bilimlarini sinovdan o'tkazish bilan birga, mamlakatimizning boy tarixi, madaniy merosi va mehmondo'stligi bilan ham yaqindan tanishish imkoniga ega bo'ldilar. Musobaqa dasturidan Xalqaro anjumanlar saroyidagi ochilish marosimi, O'zbekiston Milliy universitetidagi laboratoriya ishlari, madaniy sayohatlar va taqdirlash marosimi o'rin oldi.

Jahon olimpiadasida O'zbekistondan ishtirok etgan o'quvchilarning barchasi sovrinli o'rinlarni egalladi: Rayhona Tuymurodova oltin, Jasur Mustafoyev, Azizmuhammad Hafizov va Mirjalol Homidjonov kumush medalni qo'lga kiritdi. Yurtboshimizning tegishli qaroriga ko'ra, intellektual musobaqa g'oliblari oltin, kumush va bronza medallari uchun tegishli bazaraviy hisoblash miqdorining 1000, 1500, 2500

baravari miqdorida bir martalik pul mukofoti bilan taqdirlanadi.

Xalqaro olimpiadalar faqat bilimlar bellashuvi emas. Ular mamlakatlar o'rtasida ilmiy hamkorlikni mustahkamlash, tajriba almashish va yosh avlodni yuksak maqsadlar sari ruhlanitirishga xizmat qiladi. Bu jihatdan Toshkentdagi olimpiada O'zbekistonning xalqaro ta'lim makonidagi nufuzini yanada mustahkamladi.

Mamlakatimizda Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatining kengayishi, zamonaviy ta'lim muhitining shakllanishi, olimpiada harakatini qo'llab-quvvatlash tizimining takomillashtirilishi natijasida o'zbekistonlik o'quvchilar xalqaro maydonlarda tobora yirik natijalar qayd etmoqda. Endi O'zbekiston nafaqat xalqaro olimpiadalarda ishtirokchisi, balki ularni yuksak tashkiliy saviyada o'tkaza oladigan mamlakat sifatida ham e'tirof etilmoqda.

Toshkentda o'tkazilgan 58-Xalqaro kimyo olimpiadasi ilm-fanga e'tibor, yoshlarga ishonch va kelajakka qaratilgan investitsiyaning yorqin ifodasi sifatida mamlakatimiz ta'lim tarixida munosib o'rin egallaydi.

Muyassar IBROHIMOVA



Bosh muharrir:
Iqbol MIRZO

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Mas'ul kotib: Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Otabek Bakirov

Adadi – 18 551
Shundan:
Kirill yozuvida – 6 962
Lotin yozuvida – 11 589
Media kuzatuvchilar – 90 225
Buyurtma: G – 740
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko'rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6

Sahifalovchilar:

Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva



Manzilmiz:

Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko'chasi, 69-uy

Telefonlar:

Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:

Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 21:10

Sotuvda narxi erkin.



www.jadid.uz

Muassislar



O'ZBEKISTON
YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA'NAVİYAT
VA MA'RIFAT MARKAZI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI
QO'LLAB-QUVVATLASH
VA RIVOJLANTIRISH
JAMOAT FONDI

"SHAHIDLAR XOTIRASI"
JAMOAT FONDI